

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MUSIQA, BADIY GRAFIKA VA MEHNAT TA'LIMI FAKULTETI
“BADIY GRAFIKA VA UNI O'QITISH METODIKASI” KAFEDRASI

Xoliqulova Umida Rustamovna

Miniatyura janrini sopol buyumlarga qo'llash uslublari

5211200 – Amaliy san'at (bakalavriat) ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

ILMIY RAHBAR:

D.Omonov

Bitiruv malakaviy ishi “Badiy grafika va uni o'qitish metodikasi” kafedrasida
bajarildi. Kafedraning 20__ yil __ maydagi majlisida muhokama qilindi va
himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma №__)

Kafedra mudiri: dots. M.Umarov

Bitiruv malakaviy ishi YaDAKning 20__ yil __ iyundagi majlisida
himoya qilindi va ____ ball bilan baholandi (bayonnoma №__)

YaDAK raisi: _____
A'zolari: _____

Samarqand-2015

MUNDARIJA

Kirish

I. MINIATYURA SAN'ATINING RIVOJLANISHI TARIXI

- 1.1 Miniatyura san'atining vujudga kelishi 6
- 1.2 Samarqand miniatyura maktabi tarixi19
- 1.3 Miniaturani ishlash va badiiy bezash xususiyatlari..... 23

II. MINIATYURA SAN'ATIDA ISHLASHNING O'ZIGA XOSLIGI

- 2.1 O'rta Osiyo miniatyura san'ati asoschisi Kamoliddin Bexzod25
- 2.2 Rishton sopol buyumlarini ihsanishi va xususiyatlari..... 35
- 2.3 Sopol buyumlarga miniatyura ishlash uslublari. 47

III. XULOSA 52

IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR54

KIRISH

Qadimgi nodir qo'lyozmalar ichida bizgacha saqlanib kelgan nafis, mo'jaz rasmlar aloxida o'ziga xos go'zallik, nafosat olamiga ega. Ulardagi yorqin ranglar, nozik chiziqlar va ajoyib mutanosiblik xamon tomoshabinga estetik zavq bag'ishlaydi. Shuning uchun xam bu rassomlar obidalari jaxonning eng nufuzli muzey, kutubxona va majmualarida asrab-avaylanmoqda. Jaxon tasviriyl san'ati xazinasida munosib o`rin olgan miniatyuralar Sharq xalqlarining mushtarak badiiy merosidir.

Mustaqilligimiz sharofati bilan o'zbek xalqi o'zligini taniy boshladi. Uning boy tarixi, madaniyati o'rganila boshlandi. Bugungi kunda O'zbekiston jaxonning eng qadimiy madaniy markazlaridan biri bo'lgani isbotlanmoqda.

Sharq miniatyura va kitobat san'atini respublikamizda o'rganishda, nashr qilishda, dunyoning eng nufuzli va muzey va kutubxonalaridan qidirib topishda Xamid Sulaymonovning xizmati ko`zga yaqqol tashlanadi.

Olim ta'rif bergan «Boburnoma rasmlari» xamda F.Q.Sulaymanova bilan xamkorlikda chiqargan «Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar» nomli albomlarni keng jamoatchilik qizg'in kutib oldi.

Mavzuning dolzarbligi. Prezident I.A.Karimov "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nomli ma'ruzasida 1997 yil 29 avgust Oliy Majlisning IX – sessiyasida talim sohasiga katta e'tibor berganligi natijasi deb bilamiz. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik sharofati tufayli barcha soxalarda muhim o'zgarishlarni sodir etdi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tasviriyl san'at ta'limiga oid bajarilgan miniatyura ishlarini tanlab olish masalalari ko'plab asarlarni yuzaga kelishiga ham sabab bo'ladi. Amaliyl san'atning badiiy bezak ishlarini amalga oshirgan ko'plab O'zbekiston xalq rassomlari S.Bulatov, Ch.Axmarov, I.Ikramov, R.Axmedov, R.Choriyev, Q.Basharov, V.Vinediktov, S.Subxonov, N.Ten, T.Muhammedov, A.Mamajonov, A.Nuriddinov va boshqalarni aytib o'tish mumkin. Badiiy bezak va miniatyura rasmlarini chizish bilan yaratilgan

asarlarning asosiy qismida xalqimizning hayoti aks ettirilib unda milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, milliy ruxdagi naqsh va bezaklar tasvirlanadi.

Pedagogika fanlari doktori, professorlar R.Xasanov, S.Bulatov, pedagogika fanlari nomzodlari, dosent B.Oripov, B.Boymetov, N.Tolipov, S.Abdurasulov, A.Sulaymanov, R.Rajabov va boshqalarning pedagogik, metodik qo'llanmalarida yoritib berganligini ko'ramiz. Shularni hisobga olib mavzuni "Miniatyura janrini spool buyumlarga qo'llash uslublari" deb belgilagan edik.

Tadqiqotning maqsad: Tasviriy sanat darslarida miniatyura ishlash usullarini takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari: -Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlashga doir mavzularda suratlar yaratish metodikasini rivojlantirish;

-Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlashning ahamiyatini ochib berish.

-Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlash yaratishning muammolarini ko'rsatish.

-Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlashning o'ziga xos tomonlarini yoritish.

-Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlash haqida tushunchalar berish.

-Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlash rassom asarlari va ularning tahlilini keltirish.

-Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlashning fanlar bilan bog'liqligini ko'rsatish.

-Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlash yaratish shakl va usullarini takomillashtirish.

-Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlash masalasini yoritish.

-Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlash asarlarni yaratish bosqichlarini ishlash.

Tadqiqotning obyekti: Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlashni o'rganish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: Umumta'lim maktablarining tasviriy san'at darslari.

Tadqiqotdan ko'tiladigan natija. Malakaviy bitiruv ishining o'zi miniatyura tasvirlash usullarini ko'rsatib berish maqsadida bajarildi. Bu tasviriy san'at darslarida qalamtasvir, qoralamalar chizish, gravyura, litografiya kabi miniatyura asoslarini tushuntirish va uni maktab o'quvchilariga chuqurroq o'rgatish masalalarini qamrab olgan. Bunda maktab o'qituvchilari uchun miniatyura rasmlar chizishning yo'llari, dars ishlanmasi va rasm ishlashning ketma-ketligi ko'rsatiladi.

Tadqiqotning metodlari: tahlil, kuzatish, amaliy, dars o'tish va o'rganish.

Tadqiqotning ilmiy farazi: Agar;

-Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlashning ahamiyati ochib berilsa.

-Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlashning muammolarini aniqlansa.

-Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlashning o'ziga xos tomonlari yoritilsa.

-Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlangan rassom asarlari va ularning tahlili keltirilsa.

-Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlashning shakl va usullari ishlab chiqilsa.

Yangiligi va amaliy ahamiyati.

Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlash ahamiyatining ochib berilganligi.

Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlashning muammolarini aniqlangani.

Tasviriy san'at darslarida miniatyura tasvirlashning shakl va usullari ishlab chiqilgani.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar tanqidiy tahlili.

Amaliy san'atning miniatyura chizish turlaridan hisoblanadi. Chunki qalam bilan birinchi rasmlar chizib olish va uni ranglash yoki o'yish va xakozalar keyin bajariladi.

Rassom va pedagog Ch.Axmarov miniatyurachi sifatida tanilgan. Grafikachi rassom I.Ikromovning o'zbek tilida "Rasm darsi" nomli maqolasi e'lon qilingan edi. Unda rasm chizishning zarurati bayon etiladi. Professor R.Hasanov "Tasviriy san'at asoslari" 2004, keyingi vaqtlarda B.Boymetov, S.Abdurasulov, N.Tolipovlar tomonidan kollej o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Biz ham uni birinchi o'ringa qo'ygan holda ishimizni miniatyura tasvirlashning muhimligini va o'qitilishini takomillashtirishga qaratdik.

Tuzilishi: Kirish, uch bob, yetti fasl, umumiy xulosa, adabiyotlar ruyxati va ilovadan iborat bo'lib 54 betni tashkil etadi.

I. MINIATYURA SAN'ATI RIVOJLANISHI TARIXI

1.1 Miniatyura san'atining vujudga kelishi

MINIATYURA (fransuzcha miniature; lotincha minium — qizil bo'yoq) — badiiy usullari o'ta nafis bo'lgan kichik hajmli (mo'jaz) tasviriy san'at asarlari. O'rta asr qo'lyozmalarini ziynatlash uchun yaratilgan nafis mo'jaz rasmlar, shuningdek, suyak, pergament, mag'zi soxta (toshqog'oz), metall, chinni, ba'zan maishiy buyumlar (tamakidon, soat, uzuk va boshqa)ga ishlangan kichik hajmdagi rangtasvirga ham miniatyura atamasi qo'llanadi. Badiiy miniatyuraning kitob va portret miniatyurasi kabi sohalari keng tarqalgan. Temuriylar davrida alohida varaqlarga miniatyura ishlash va ulardan muraqqa tuzish an'anaga aylangan, alohida shaxslar tasviri (portreti)ni ishlash taraqqiy etgan, xususan, Hindistonda Boburiylar davrida yuksak darajaga ko'tarilgan. XIV asr oxirida Samarqandda Samarqand miniatyura maktabi shakllangan, keyinchalik u Hirot miniatyura maktabining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan; Amir Temur qurgan bog'lardagi ko'shklar ham devoriy rasmlar bilan bezatilgan. Temuriylar saroylarida alohida kitobxonalar tashkil etilib, u yerda mohir xattot va kitobat ahli, jumladan, musavvirlar ham faoliyat ko'rsatgan. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy davrida ham kitobat san'ati va miniatyura taraqqiyotiga katta e'tibor berilgan. Jaxon tasviriy san'at xazinasidan munosib o'rin olgan miniatyuralar Sharq xalqlarining mushtarak badiiy merosidir. U an'anaviy kitobat san'atining tarkibiy kismi bo'lib, qadimgi nodir qo'lyozmalarni ziynatlash bilan birga, mazkur asarlardagi ilg'or insonparvarlik g'oyalari, oliyjanoblikka bo'lgan intilish, go'zallik to'g'risidagi tasavvurni ifodalashga xam xizmat qilgan. Turli san'atkorlar – xattot, rassom, muzaxxib, muqovasoz, jadvalkash va boshqalarning ijodiy xamkorligida yaratilgan nodir qo'lyozmalar o'sha davr madaniy, ijtimoiy xayotini badiiy-estetik qarashlarini o'rganishda qimmatli manbalardan hisoblanadi. Yaqin va O'rta Sharq madaniy markazlari bo'lmish Bog'dod, Tabriz, Samarqand, Buxoro, Xiro, Sheroz kabi

shaxarlarda X-XIX asrlar davomida maxsus miniatyura maktablari mavjud bo'lib, ba'zan yuksak darajada rivojlangan, ba'zan esa tanazzulga yuz tutgan. Xar bir rassomlik markazida o'ziga xos badiiy va ifodaviy xususiyatlar yuzaga kelishi bilan birga, ularning barchasi sharq miniatyura san'atining ranglar sofligi va yorqinligi, chiziqlarning nafisligi va nozikligi, tasviriy uslubning dekorativ xosiyati bilan xarakterlanadi. Miniatyura nodir qo'lyozmalar ziynatlari bo'lmish shams, zarvarak unvon, xoshiya, naqsh, lavxa, xotima kabi bezaklar bilan umumiy uslubiy uyg'unlikka ega. Bu kitob ziynatlarining dekorativ xususiyati, ular yaratilgan davr dunyoqarashi, tafakkur tarzi bilan bevosita bog'liqdir. Nafis mo'jaz rasmlar asosan ilmiy, badiiy va tarixiy asarlarning qo'lyozmalarini bezashga xizmat qilgan. Rassomlar asarlarining etakchi g'oyalari va asosiy qaxramonlari obrazlarini ranglar vositasida ifodalaganlar. Shu sababli, miniatyura san'ati taraqqiyotiga sharqning atoqli allomalari Muxammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, mutafakkir va shoirlari Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xisrav Dexlaviy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy xamda mashxur tarixchilar Fazlullox, Rashididdin, Sharafiddin Ali Yazdiy va boshqalar katta xissa qo'shganlar. Shuni mamnuniyat bilan qayd etish kerakki, keyingi vaqtda Respublikamizda sharq miniatyurasi va kitobat san'atini o'rganuvchilar safi kengayib bormoqda. Ayniqsa, bular orasida o'z maqolalari va muxim tadqiqotlari bilan N.Norqulov, I.G.Nizomiddinov, A.Murodov va boshqalar aloxida ajralib turadilar.

1978 yil sharqning buyuk miniatyurachi rassomi ustod Kamoliddin Bexzod tug'ilganiga 525 yil to'lishi munosabati bilan 1991 yil O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Respublika Rassomlar uyushmasi va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, Xamza Xakimzoda Niyoziy nomli San'atshunoslik instituti birgalikda Toshkentda ilmiy konferentsiya o'tkazdi. Shu munosabat bilan Respublika vaqtlı matbuotida

M.M.Xayrullaev, A.U.Urinboev, Ch.Axmarov va boshqalarning ulug' rassom xayoti va ijodi to'g'risidagi maqolalari e'lon qilindi.

Yuqorida keltirilgan sharq miniatyura va kitobat san'atiga oid adabiyotlar, albomlar bir qarashda bu soxa juda chuqur o'rganilgan degan yanglish xulosaga olib kelishi mumkin. Lekin juda ko'plab nodir rasmlar qo'lyozmalar turli muzey va kutubxonalarda saqlanib, xali ilmga kiritilgani, xatto ettirilgani xam yo'q.

Sharqiy arabiston xalqlarining asosiy xizmati shunda bo'ldiki, ular keyingi avlodlarga antik grek-rim madaniyatining ko'pgina yutuqlarini saqlab qolib, uni rivojlantirgan xolda etkazib keldilar.

IX-XIII asrlar davomida yaqin va o'rta sharq mamlakatlari Eron, Ozarbayjon, O'rta Osiyo xalqlarining uzviy aloqasi. Bog'dod, Sheroz, Tabriz, Samarqand kabi madaniy markazlar va ularning inson xayotidagi o'rni beqiyos.

Miniatyura san'ati qo'lyozma va kitoblarni bezash san'atidir.

Kalila va Dimna xikoyasi.

Dioskorining "Farmologiya" kitobi xaqida.

Rashiddiddinning "Jami'ut tavorix" asarlarining yaratilishi.

Fotimiylar sulolasi.

Suriya maktabi (XIII asrning I yarmi).

Iroq (Bog'dod) maktabi (XIII asr).

Miniatyura san'ati tarixi, Sharq miniatyura maktablari, ularning ijodiy faoliyatini o'rganish. Miniatyura san'atining kitobat va xattotlik san'atidagi o'rni. Miniatyura san'ati o'z oldiga quyidagi maqsad va vazifalarni qo'yadi.

-Miniatyura san'atini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish;

-Miniatyura san'atining yuzaga kelishi, texnologiyasi va uning rivojlanish tarixi haqida ma'lumot to'plash;

-Miniatyura san'atini o'rganish orqali ijodiy qobiliyatni o'stirish, dunyoqarashini shakllantirish;

-Miniatyura san'atini o'rganish, milliy qadryatlarimiz, Sharq amaliy san'atining go'zalligini, falsafiy, ruhiy va tarbiyaviy qirralarini o'rganish;

-axloqiy, g'oyaviy va estetik tarbiya berish;

-umumiy ta'lim va qo'shimcha ta'lim sohalarida Miniatyura san'atining o'qitish metodikasi hamda maqsadini ochib berish;

-umumiy ta'limda va qo'shimcha ta'limda mustaqil ishlashga o'rgatish;

-usta-shogirdlik odobi va an'analarni davom ettirishni o'rganish;

Miniatyura san'ati mashg'ulotlarini olib borish jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim;

-talabalarning qiziqishi, qobiliyati va iqtidorini e'tiborga olish;

-o'quv yurtining moddiy bazasini hisobga olish va boshqalar;

Miniatyura san'ati mashg'ulotlarining oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun mustaqil darslar ham alohida ahamiyatga ega.

Miniatyura san'ati mashg'ulotlarining yanada samarali tashkil etish uchun quyidagilarga amal qilish lozimdir:

-darslarda yangi pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanish;

-ta'limning zamonaviy texnikaviy vositalarini qo'llash;

-darslarda xalq og'zaki ijodi namunalari, usta-shogird an'alaridan keng foydalanish;

-talabalar ishlaridan ko'rgazmalar qilish;

-Miniatyura san'atida ishlatiladigan atamalarning lug'aviy ma'nosini atroflicha o'rganish.

O'zbekiston xalqining tasviriy san'ati juda qam qadimiy bo'lib, uning sarchashmalari ibtidoiy jamoa davri tosh asridan boshlanadi. Turli ranglar

vositasida toshga bitilgan juda ko'p tasvirlar o'lkamizning turli xil voqalarida uchraydi. Ruspublikamiz janubida Ko'hitang tog'idagi Zaro'tsoydan topilgan Zarao't (Sug'diycha Zaraut – tog' oralig'idagi o't - o'langa va suvga mo'l joyiga aytiladi) ushbu joyda tasvirlangan yovvoyi ho'kizlar ovi tasviri, ovchilar hayvon terisidan yopinchiq yopinib, tuyaqush ko'rinishidagi ho'kizga yaqinlashayotgani va unga boltacha, tosh, nayza va kamon bilan hamla qilayotganlari ajoyib tasvirlangan.

Tasvir chetida rassom o'z niyatini ifodalash uchun tog' sirtidagi burtoq o'rinlardan ham foydalanishgan va bir oz o'yib yoki rang bilan ularga shakl bergan, tog' darzlaridan handahni tasvirlash uchun qam foydalanganlar. Bu yerga hayvonlarni haydab kelib qulatish tasviri cheklangan. Zarautsoyda yana boshqa turli hayvonlar, qar xil asbob-anjomlar, qurollar hamda quyosh tasvirini ko'ramiz. Ibtidoiy davrga doir tog' tasvirlari, obidalari, yana Samarqand yaqinidagi Ilonsoy va Oqsoydan, Toshkent yaqinidagi Xo'jakentdan, Farg'onadagi Suvratsoydan va boshqa joylardan topilgan.

Toshlarga o'yib ishlangan tasviriy san'at obidalari o'sha davrning odamlari hayoti, dunyoqarashi va mashg'ulotining ifodasi desa bo'ladi.

Samarqandning qadimgi Afrosiyobni o'rganishda qadimgi Sug'diylarning VII asrga oid devoriy rasmlari kashf etildi. Qal'a devorlarining birida bir muncha saqlanib qolgan bezaklar topildi. Bundan tashqari devordagi serhasham liboslardagi kishilarning fil, tuya va otlarda kelayotgan tasviri bor. Devorni boshqa bir bo'lagida gilam ustida o'tirgan bir guruh odamlar suhbatini tasviri tushirilgan. Ulardan birining qo'ltig'ida kitob, boshqasining choponi etagida sug'dcha yozuv bo'lib unda Chaqoniyon shohining Samarqand shohiga yuborgan elchisi haqida tasviri ifodalangan.

Termiz yaqinidan Tuproq qal'a ibodatxonasidan topilgan eramizning I va III asrlariga oid tasviriy san'at namunalari Changchi qiz, uzum va shaftoli terayotgan ayol tasviri topilgan. Ushbu obida va tasvirlar o'tgan avlodlarimizning o'ziga xos badiiy madaniy markazlaridan biri bo'lganligidan

o`sha davrning eng yorqin namunasi sifatida hozirgi o`qib o`rganayotgan talabalarimiz uchun tasviriy san'at namunasidir.

Jaxon madaniyati taraqqiyoti tarixida Sharqiy Arabiston xalqlari san'atining xam muxim o`rni bor. Xalifalikning (Suriya, Misr, Falastin, Shimoliy Afrika, Eron, O`rta Osiyo, Janubiy Ispaniya) ko`pgina shaxarlarida rivojlangan O`rta asr arab madaniyati insoniyatning progressiv rivojlanishida yangi bir bosqich bo`ldi.

Sharqiy Arabiston xalqlarining asosiy xizmati shunda bo`ldiki, ular keyingi avlodlarga antik grek-rim madaniyatining ko`pgina yutuqlarini saqlab qolib, uni rivojlantirgan xolda yetkazib keldilar.

IX-XIII asrlar davomida Yaqin va O`rta Sharq mamlakatlari, Eron, Ozarbayjon va O`rta Osiyo xalqdari bir-biri bilan uzviy aloqada bo`lib kelganlar. Bog`dod, Sheroz, Tabriz, Samarqand kabi shaxarlar madaniyati va taraqqiyotning markazi bo`lib, o`zlarining ko`zga ko`ringan olimlari, shoirlari, xamda fan va madaniyat o`choqlari bilan butun dunyoga tanilgan edilar.

Tasviriy san'atning rivojlanishida tirik jonzotni tasvirlashni man etgan islom dini ma'lum darajada to`squinlik qiladi. Ammo bu qarshiliklar tasviriy san'atning umumiy taraqqiyotini buka olmaydi.

Mana shu ta'qiqlangan ishlar natijasida Sharqiy arab mamlakatlarida dastgoxlik tasviriy san'atning rivojlanishi birmuncha qiyin bo`ladi. Uning o`rnini esa qo`lyozma kitoblarga ishlangan bezakli-miniatyura san'ati egallaydi.

Miniatyurani yuzaga kelishida rivojlanish arab tilida badiiy adabiyotning ravnaqi, kitobning qadimdan ilmu ma'rifat manbai sifatida yuksak qadrlanganidan dalolat beradi. Miniatyura kaligrafiya, saxifalarni ziynatlash, muqova bezagi bilan bir qatorda qo`lyozmaning eng asosiy murakkab dekorativ elementlaridan birini tashkil qiladi. Miniatyuraning asosiy axamiyati tekst mazmunini tushuntirish va umuman olganda dunyoviy xarakterga ega bo`lgan asarlarni bezashdan iborat edi. Asosan proza, poeziya, ilmiy traktatlar, tarixiy xronikalar aks etgan asarlarga miniatyura ishlangan. Ular orasida «Kalila va

Dimna» xikoyasi, grek vrachi Dioskoritning «Farmologiya», Rashiddinning «Jam'iut tavorix» asarlari bor edi.

O`rta asr musulmonlarining qadimgi qo`lyozmalari faqatgina guash bo`yoqlar bilan ishlangan. Bu bo`yoqlarni tayyorlash usuli Yaqin Sharqqa VIII asrda O`rta Osiyo orqali xitoydan o`tgan. Madaniyat markazlarini vayron qilgan, tez-tez sodir bo`lib turgan bosqinchilik urushlari tufayli ilk arab miniatyuralari deyarli saqlanib qolmagan. Bizgacha yetib kelmagan arab miniatyurachilarining asarlari ko`p bo`lmay ular xam asosan XIII asrga taalluqlidir.

Xozirgi vaqtga kelib, arab miniatyuralarini o`rganuvchi mutaxassislar, qo`lyozmalarni bezashni uchta davri va regional badiiy markazi mavjud ekanini e'tirof etadilar. Bular fotimiylar sulolasi davri (IX-X- XI) Suriya (XII asrning birinchi yarmi) va Iroq (yoki Bog`dod) XIII asr miniatyura maktablaridir. Bularning markazlari Ma'sul, Bog`dod va Vosit shaxarlarida bo`lgan.

Shartlilik va dekorativlilik prinsiplari asosida ko`rilgan o`ziga xos ko`rinishi bo`lgan arab miniatyuralari O`rta asr Sharq rang tasviri sifatida o`zining takrorlanmas obrazli badiiy tiliga egadir. Miniatyuralarning o`ziga xos xususiyatlaridan biri tasvirning satx yuzidaligidadir. Bu xususiyat qo`lyozmaning dekorativ uslub (serxasham) ziynatlar, shams, lavxalar, zarvarak va boshqa bezaklari kabi kitobning ziynatlari, uning tuzilishi xarakteridan kelib chiqqan.

Bizga ma'lum bo`lganlik arab miniatyuralar fotimiylar sulolasi davrida ishlangan bo`lib, XI asrga taalluqlikdir. Oxorlangan qog`ozga ishlangan odamlar qiyofasi xatti xarakatlari sodda va yaxlit xolda tasvirlangan.

Suriya qo`lyozmalari bo`lmish Dioskoritning «Farmokologiya»si, «Kalila va Dimna» asarlariga ishlangan bezaklar XIII asrning boshlari va o`rtalarida arab miniatyurachiligiga Vizantiya va Sosoniylar (qadimgi Eron) san'atining kuchli ta'siriga qaramasdan yangi bir bosqichni boshlab beradi. Ba'zi bir xil qo`lyozmalarda, masalan, XIII asrning birinchi yarmidagi («Muxtor al Xakim

va Muxsin al Kalim») Al muboshirning «Tanlab olingan dono fikrlar va soʻzlovchining goʻzalligi» asari qoʻlyozmasidagi rasmlar, manzara tasviri yoki me'morchilik koʻrinishlari bilan boyitilgan. Kishilar qiyofasining tasvirida tabiiylikka intilingan, kiyimlarning buklanganligi tasvirlangan.

Arab kitob bezakchiligining ravnaq topishi davrini Iroq maktabi miniatyurachiligi boshlab berdi desak, Dioskoritning «Farmokologiya» asari qoʻlyozmasi ana shu maktabga taalluqlikdir. Bu qoʻlyozmaning bezagini xam Abdalla Ibn Fadl ishlagan deb tan olingan. «Farmokologiya» asaridagi miniatyuralar xam boshqa asarlardagi kabi, matnni tushuntirib berilgan uslubda loʻnda qilib tasvirlangan. Mana shu ma'noda tozaligichning qurilishini tushuntirayotgan Dioskoritning tasvirlovchi miniatyura diqqatga sazovordir.

Miniatyura aniq kontur bilan koʻrsatilgan va yorqin boʻyoqlarga boʻyalgan katta figuralar va predmetlar aniq koʻrinib turgan matnlar orasidagi sariq fonida aks etgan.

Osiyoda eng yirik davlatlardan hisoblangan Eron insoniyat sivilizasiyasining eng qadimgi markazlardan biridir. Bu yerda necha ming yillar davomida arxitektura, ulkan qurilishlar va qoyalarga ishlangan monumental relyeflardan tortib, nozik toshdan yoʻnib ishlangan buyumlar, sopol idishlar va ajoyib miniatyuralargacha yaratildi.

Eron miniatyurasini koʻzdan kechirib chiqishdan avval qisqa boʻlsa-da, tarixga nazar tashlash joizdir. Eron miniatyura san'ati va nodir qoʻlyozmalarni yaratilishi. VII asrning oʻrtalarida Eron arablar tomonidan bosib olinib arab xalifalariga qaram boʻlib qoldi. Eron bu qaramlikdan IX-X asrlardagina ozod boʻldi. Arablar oʻzlari bilgan yangi islom dinini olib kelishdi. Islom dini maxalliy badiiy an'analarni butunlay yoʻqota olmagach, ularni yoʻnalishga katta ta'sir qiladi: binolarni, yangi masjidnlarni qurish shart boʻladi. Tasviriy san'atni rivojlantirishni cheklaydi (inson qiyofasini tasvirlashni qisman ma'n qiladi), bezakli naqsh san'atini rivojlanish sur'ati tezlashadi. X asrning boshlarida Eronning sharqiy viloyatlari Oʻrta Osiyoliklar xokimiyati tepasida turgan

Somoniylarga yon bosadi. Buning oqibatida O`rta Osiyo va Eron Xalqlarining madaniy aloqalari yo`lga qo`yiladi. X-XIII asrlarda feodalizimning rivojlangan davri – Eron san'atining rivojlanishida eng muxim bosqichdir. Chunki bu davrda me'morchilikning asosiy shakllari, tasviriy san'at, badiiy xunarmandchilik ravnaq topadi.

Bu o`zgarishlarni xammasi Eron shu vaqt ichida ikki marta XI asrda Saljuqiy turklari tomonidan va VIII asrda Murillar tomonidan ayovsiz bosqinchilik yurishiga uchragan og`ir tarixiy davrlarda yuz beradi.

Madaniyatning rivojlanishi keskin g`oyaviy kurashlarda, feodalizm zulmiga qarshi yo`naltirilgan xalq xarakatlari davomida kechadi.

Xokim sinflar islom diniga mexnatkash xalqni jaxolatdan saqlash quroli sifatida qaragan edilar. Ammo, mamlakat uchun eng og`ir bo`lgan paytda xam xalqchil, xayotbaxsh manbaalar chinakkam san'at asarlarining yuzaga kelishiga sabab bo`ladi. San'atlar ichida eng avvalo, Eronning ajoyib she'riyati barq urib rivojlanadi. Shoirilar qatorida eng birinchi bo`lib, Eron va tojik adabiyotining klassigi, mashxur «Shoxnoma» poemasi muallifi Abulqosim Firdavsiy turadi.

XI-XII asrlar mobaynida faylasuf shoir Umar Xayyomning o`sha davr uchun yangilik bo`lgan chuqur mazmunli ruboylari dunyoga keladi.

XIII- XIV asrlar esa «Guliston» va «Bo`ston» nomli o`lmas asarlar avtori shayx Sa'diyning nozik va nafis lirik - asarlar muallifi xofizning nomi bilan xarakterlanadi. Ularning asarlari eng moxir xattotlar tomonidan mexr-muxabbat bilan ko`chirib kitob qilingan. Ajoyib miniatyuralar bilan bezatilgan va qimmatbaxo muqovaga o`ralgan.

Eron miniatyura san'ati dunyoviy rang tasvirining eng yorqin tarixiy saxifalaridan biridir. Bu san'atning bizgacha yetib kelgan birinchi yodgorliklari XI asr boshlariga taalluqlidir. Ammo miniatyura janrining Sosoniylar davridayoq (III va VII asrlar) mavjud bo`lganligi xaqida xam ma'lumotlar bor.

Eron aniqrog'i, fors miniatyurasi kitob illyustrasiyasi shaklida yuzaga kelib, to XVI asrgacha xam kitob va qo'lyozma varag'i bilan uzviy xolda rivojlanadi.

Katta shaxarlarda, xukmdorlarning saroylarida mansabdor shaxslarda kitoblarni ko'chirish va bezatish bilan shug'ullanadigan katta-katta ustaxonalar bo'lgan. Qadimgi Eron qo'lyozmalari, muqovasining rang-barangligiga nafis, yaltiroq qog'ozga yozilgan nastalik xusnixatning nafisligi, miniatyuralarning yorqin bo'yoqlari va naqshni bezaklari xamon kishilarning diqqatini o'ziga tortib keladi. Shuni xam aytib o'tish lozimki, Eron miniatyurasi va undagi matn parchasi orasida o'ziga xos uyg'unlik mavjuddir. Mineral bo'yoqlar tuxumning oqidan yoki o'simlik mumida eritib ishlatilgan rasmning ba'zi bir joylarida tilla va kumush suvi yuritilgan.

Qog'oz va tayyor surat to'q billur yoki qimmatbaxo qizil tosh aqiq bilan jilolangan qo'lyozma kitobining zarvarag'i rang-barang ornamental naqshlar bilan o'ralgan. Saxifalarning xoshiyasi esa o'simliklarni tasvirlovchi naqshlar va hayvonlar shakli bilan to'ldirilgan bo'lib, oqish rang, tilla suvi yoki bo'lmasa zarxal bilan qoplangan. Teridan qilingan muqovalar esa tilla qo'shilgan naqshlar bilan zarb qilingan.

XIV asr oxirida Eron miniatyura san'atida Sheroz maktabi yuzaga keladi. Janubiy Eronning bu shaxri mashxur shoirlar Sa'diy va xofizning vatani bo'lmish Sheroz bir necha asrlar davomida madaniyat va san'at markazi bo'lib keladi. Adabiyot, she'riyat va rang tasvir barq urib rivojlanadi. 1370 yilda «Shoxnoma» asariga ishlangan illyustrasiya Sheroz miniatyurasining ilk namunasidir. Bu asar kompozitsiyasining juda xam soddaligi-bir oz primitivlik, manzara fonlarning rivojlanmaganligi, bo'yoqlar uyg'unligining sustligidan dalolat beradi. Shunga qaramasdan Sheroz maktabining biz uchun aniq lo'nda va ayni vaqtda o'ta soddalikni ko'ramiz. Toshkentdagi Sharqshunoslik institutida XIV asrning ikkinchi yarmiga tegishli Amir Xusrav Dexlaviyning «Xamsa» asari qo'lyozmasi saqlanmoqda. Bunda illyustrasiyalarda lirik

syujetlar asosiy o`rinda turadi. «Shoxnoma» miniatyuralariga yaqin bo`lishiga qaramasdan bu yerda uslubning ancha yetukligi ko`zga tashlanadi. Kam figurali kompozitsiyalar rang jixatidan juda go`zal bo`lib chiziqlar ranglar mutanosiblikda ritmik uyg'unlikka ega, nafislik bilan soddalik uzviy bog'lanib ketgan.

Sheroz maktabi uchun xos yana bir xususiyat manzara asar yaratishga kuchli qiziqishdir. Bu yerda manzara tasviriga birinchi marta katta e'tibor berilganini, uning konkretlashtirilganini ko`rish mumkin.

XIV asrning birinchi yarmida Sherozda kitob san'ati yuksak darajada rivojlanadi. Miniatyuraning badiiy tili boyib, yetuklikka erisha boshlandi. 1410 va 1420 yillarda «Fors she'riyati majmuasi» va 1425 yildagi «Shoxnoma» qo`lyozmalari qiziqarlidir. Sheroz xokimi Iskandar Sulton uchun yaratilgan «Majmua» miniatyuralarda Nizomiy dostonidagi bosh qaxramon Xusravning murakkab obrazi ikki aspektda yorqin tasvirlangan. Xusrav-botir va jasur qaxramon, shu bilan birga ayshu ishratga, kayfu safoga berilgan xokim. Ammo afsuski, noma'lum rassom tomonidan yaratilgan bu asarda obrazning barcha xamma qirralari to`la yechib berilmagan bo`lsada, poemaning emosional ruxiga birmuncha yaqinlashilgan.

Sheroz miniatyurasining yana o`ziga xos xususiyatlaridan biri «Shoxnoma» illyustrasiyasidagi chizgilar odamlar va xayvonlar xarakterini juda aniq qilib tasvirlangan.

XVI asrning oxiriga oid bir miniatyurada Insonning farishtalar xamroxligida yerga tushuvi tasvirlangan u masjid mezasiga qo`nmoqda. qanotli farishtalar rangli kiyimlarda devor oq, osmon oltin rangda, Iso qora turk kiyimida boshida oq salla. Tarixchi Matrakchi Nazux sulton buyrug'i bilan u bosib o`tilgan manzillar tasviridan iborat «Kitob ul-manzil» asarini yozadi. Tasvirlangan kitobda noma'lum rassom tomonidan Istambul va Galata ko`rinishi ishlangan. Butun maydon imoratlar tasviri bilan to`lgan. Masjidlar esa aloxida ko`rsatilgan. Devorlar Sarg'ish, tomlar esa qizg'ish rangda Bosfor dengizi ko`k,

yelkanli kemalar qoramtir rangda ifodalangan keyingi miniatyuralarda ziyoratchilarning saxroda yurishi, xovuz va unga qo'yiladigan anxor, anxor ustida o'tgan torgina ko'prik tasvirlangan.

XV asrning ikkinchi yarmida yozilgan Sulaymon – I shoxligiga doir asarda Eron elchisini qabul qilish marosimini tasvirlovchi miniatyura bor. Sulton chexrasi aniq chiqqan, uning yonida qo'lida lochin tutgan yanicharlar. O'rta Saroy axli, ular elchining qo'lidan tutib, taxtga yaqin keltirishmoqda. Boshqa suratda Kipr qal'asi Sant Elmonning qamal qilinishi ko'rsatilgan. Uchinchi miniatyurada Drava daryosini kechib o'tish xaqida qolganlarida Veger qal'asi, Sigetovar qo'riqchi kemalari, lashkar yurishi va xokazolar tasvirlangan. Keyingi ikki miniatyurada Sulaymonni ko'mish marosimi va Istambuldagi Sulaymonning masjidi tasvirlangan. Murod – (1574-1595) zamonida «Shoxnoma» asarida yaratiladi.

Uni ozarbayjonlik musavvir miniatyuralar bilan bezaydi. Birinchi zarvarakda xarbiy ko'rik tasviri, Saroy oldidan piyoda yanicharlar o'tib bormoqda, yelkalarida miltiqlar, sipoxiylar serxasham kiyimlarda katta sallalar o'rashgan, ba'zilar javshan kiygan, qo'llarida nayza. Tasvirlar poqonama-pog'ona beriladi.

Saxifa yuqorisida saroy, yanicharlar, lashkarboshilarning kiyimlari kamroq, qurol, kiyimlar, bayroqlar oltin va kumush rangda tasvirlangan.

Ikkinchi miniatyurada Kars shaxrini qamaldan ozod etish tasvirlanadi. Tepada devor bilan o'ralgan shaxar ichida o'ylar, masjidlar, quyida turk lashkargoxi ifoda qilingan.

1550-1590 yillarda «Xunarnoma» asari yaratiladi. Musavvir Usmon bezagan. Usmon manzaraga bir necha epizod qo'shadi. Saxifa yuqorisida Saroy imoratlar tomi qizg'ish, tog'lar ko'kish. Shular fonida qora chodirlar, saxrodagi sarg'ish toshlar jozibadorligi ortgan. Oxangdosh ranglar ustalik bilan topilgan. U qator portretlar xam yaratadi. Xusrav va Sulton Salim - 2 portretlari shular jumlasidandir.

Turk xattotlik san'atini yaratganlardan biri Shayx Xamidullo (1436-1519). Uning ota-onasi asli Buxorolik bo'lib, xayot taqozasi bilan Amasyega ko'chib kelishadi. Shayx Xamidullo ko'chirgan 47 qur'on va ko'pgina badiiy asarlarni xusnixatda ko'chirgan. Mazkur musavvirlardan Bobo naqqosh, Shayx Mustafo Tojiddin Grixbandiy, Abdul qani, Miroko, Shayx Kamoliy, Shoxqo'li kabi musavvirlarni chizgan asarlari bizgacha yetib kelgan.

XIV asr oxirida yirik madaniyat markazlari Boqdod, Sheroz va Xirot shaxarlarida mustaqil miniatyura rassomlik maktablari mavjud edi. Xozirgi Afg'onistan territoriyasida joylashgan Xuroson davlati poytaxti Xirot shaxrida XV asrda XVI asr boshlarida o'z davrining beqiyos rassomlari ustod Kamoliddin Bexzod raxnamoligida ijod qilishar edi. Xirot miniatyura rassomlik maktabi yaqin va O'rta Sharq miniatyura maktablari taraqqiyotiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. XIV-XV asrlarda qadimiy madaniyat markazlardan bo'lmish Buxoro va Samarkand xam maxalliy miniatyura rassomlik maktablari bo'lgan. XIII asrda oq quyunlilar, safaviylar (1502-1576) xukmronligi davrida Tabriz va Marogiy shaxarlarida bitilgan ko'plab tarixiy va badiiy adabiyot namunalari ajoyib miniatyuralar bilan bezatilar edi. Shirvon shaxrida xam nodir qo'lyozmalar bizgacha yetib kelgan.



1.2 Samarqand miniatyura maktabi tarixi

Uning tarixi uzoq o'tmishdan boshlangan. XIV-XVII asrlarda kamol topgan. Bu davrlarda O'rta Osiyo, Xindiston, Eron maktablari va Arabiston-Buxoro maktabi «Boburiylar miniatyura maktabi, Sheroz maktabi, Isfaxon maktabi, Yazd maktabi, Bog'dod miniatyura maktabi» kabi yirik san'at markazlari tashkil topgan.

Xirot miniatyura maktabining tanazzuli va musavvirlarning Xirotidan Buxoro tomon ketishlari muxim rol o'ynaydi. XIV-XV asrlarda musavvirlarning xayoti va faoliyatida xissa qo'shgan ustod Jaxongir Buxoriy, Pir Sayd Axmad Tabriziy, Xo'ja Abdulxay Pir Axmad, Shaxobiddin Abdulla, Zaxriddin Azxar Bobo, Naqqosh Xo'ja Axmad Ubaydullo, Nizomiddin Axmad binni, Ali Arzumlar O'rta Osiyoda qo'lyozma asarlarni miniatyuralar bilan bezatishgan.

Temur va temuriylar davri Samarqand madaniyati

Temur va temuriylar davrida Samarqand shukuxi va ko'rki butun jaxonni shu bilan bir qatorda g'arbiy Yevropani ham lol etgan edi.

Ulug'bek xukmronligi yillarida Astronomiya, Matematika va boshqa tabiiy fanlar qatorida Adabiyot va madaniyat ham ravnaq topdi. Shu qatorda Movorounnaxr miniatyura maktablari shakllana boshladi.

O'rta Osiyo miniatyura san'atida Sharq Rafaeli hisoblangan Kamoliddin Bexzod boshchiligida kamol topgan Xirot miniatyura maktabining shakllanishi va taraqqiyoti ko'p xollarda Samarqand miniatyura maktabi ta'sirida amalga oshadi.

Antik tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Bexzod miniatyura san'atini Pir Sayd Axmad Tabriziydan o'rgangan. Pir Sayd Axmad Tabriziy esa «Umdat ul musavviriy» (Musavvirlar peshvosi) nomi bilan mashxur buxorolik ustod

Jaxongirning shogirdi bo'lgan. Ustod Jaxongir esa Temuriylar davri tasviriy san'atning asoschisi bo'lmish ustod Gung (soqov) dan taxsil ko'rgan.

Bexzod raxnamolik qilgan Xirot miniatyura maktabi namoyondalari eng nozik o'ta nafis asarlarida realistik tushunchalarni tom ma'noda ifoda etgan. Agar biz Buxoro miniatyura maktabi asarlarida, asosan tabiat manzaralariga oshuftalik yo'lini kuzatsak, Xirot maktabida esa inson qiyofasini tasvirlash – portret janrida katta muvoffaqiyatlarga erishganligining guvoni bo'lamiz. Tasvirning ob'yektga mosligi ranglar uyg'unligi musavvirning bosh maqsadi sanalgan. Bexzod mo'yqalamiga mansub Sulton xusayn Muxammad Shayboniyxon, Alisher Navoiy, qosim Alining «Alisher Navoiy va yosh mirzo» Bexzodning Tabrizdagi shogirdlaridan biri chizgan shu paytgacha topilgan yagona surati - Kamoliddin Bexzod portret asarlari buni yaqqol isbotlaydi.

Olimlar Bexzodni Sharqda portret janrining asoschisi deb ulug'laydilar. Ulardan biri - «Samarqand devoridagi jang» ikkinchisi - «Ulug'bek oila a'zolari va Saroy axllari bilan lochin ovida» nomli miniatyuralardir. Birinchi tasvirda Samarqand devoridagi kamon otuvchilar orasidagi Temurning nabirasi Xalil Sultonning surati xam bor.

Ikkinchi tasvirda esa Ulug'bek dala shiyponida chordona qurib o'tiribdi, uning yuz tuzilishi aniq ifoda etilgan: qisq ko'zli, mo'g'ul bashara, O'rta Osiyoliklarga xos soqol, boshida esa oq tivit qalpoq tasvirlangan.

Samarqand miniatyura maktabiga xos aniqligi portret xamda tabiat manzarasi yorqin ifodalangan.

Movorounnaxr miniatyura san'ati taraqqiyoti

Muxammad Murod Samarqandiy 1616 yilda Buxoroda bo'lgan. U Sa'diyning «Bo'ston» asariga miniatyura chizgan. So'ng bu asar Juybor shayxlaridan Abduraxim Xo'jaga tuxfa qilingan.

O'rta asr o'zbek miniatyura san'atining yana bir ko'zga ko'ringan taniqli musavviri Muxammad Murod Samarqandiy o'zining g'oyat kuchli tasviriy

qobilyati, asarlarni jonli, ifodali realligi bilan ajralib turadi. «Shoxnoma» asarida uning 115 illyustrasiya miniatyurasi uning o'z davrining yetuk san'atkori ekanligidan dalolat beradi. U g'oyat kuchli dramatik syujetlarni o'z asarlarida ifoda etadi. Asarlarida o'z davrining sosial xayoti to'laqonli ifoda etib berilgan. Uning «qo'zg'olon» asarini kuzatar ekanmiz asar qaxramonlarini g'oyat aniq tashvishli, g'azabkor va jonli ifoda etganligini kuzatamiz. Asardagi ranglar xam o'ziga xos qo'zg'olish ruxida beriladi.

Murodni rang tanlashi xam o'zidan avvalgi musavvurlardan boshqacharoq kompozisiya syujatlari va ularga tanlangan ranglarda aloxidalik reallik xukm suradi.

Murod Samarqandiy - mashxur naqqosh va mashxur atoqli musavvir. Murod Samarqandiy XVI asrda yashab ijod etgan rassom. Murod Samarqandiyning otasining ismi xaqida xam xech qayerda xech nima berilmagan. Murod Samarqandiyning ayrim sharqshunos olimlar uni tug'ilgan va vafot etgan yilini aniq ko'rsatib bermaganlar. Murod Samarqandiy juda yoshligidanoq rasm chizishga kirishadi. U rasm chizishni eng oddiy elementlarini katta zexn bilan o'rganadi. Yosh Murod tabiat elementlaridan o'z rasmlari kompozisiyasida foydalanishga, badiiy asarlar syujeti bo'yicha rasm ishlashga asosiy e'tiborni qaratadi. U birgina rasm chizib qolmay badiiy asarlarni xam mutoala qilib turar edi.

Ko'pgina manbalarda ko'rsatilishicha u davrda Xirotda Alisher Navoiy boshchiligida 40 a'zoga ega bo'lgan yetuk rassomlar xattotlar, me'morlar, musiqashunoslardan tashkil topgan «Ilmiy kengash» faoliyat ko'rsatar edi. Shu bilan birga Mirak Naqqosh raxbarligida «Nigoriston» san'at akademiyasi xam bu davr san'ati va madaniyati rivojida muxim o'rin tutgan xolda Murod Samarqandiy ijodining ravnaqida xam katta ta'siri bo'lganligini xam aytib o'tishimiz joizdir.

U Xusayn Boyqaro xamda Og'a Mirakdan ta'lim olgan. Uning Xirotda yashagan choqidagi asarlari bizgacha yetib kelmagan.

XVI asr 30-40 yillarida chizgan suratlarida 30 yaqini kashf etilgan. U xamma miniatyurachilar kabi shoir va buyuk mutafakkir Alisher Navoiy suratini xam chizgan.

Mir Alisher Navoiy chehrasi to`qri tasvir etilgan bo`lib chiqadi. Chunki Murod Samarqandiy xam Bexzod singari shoir mir Alisher Navoiy bilan birga bo`lgan.

Mazkur surat 1931 yili Londonda tashkil etilgan Eron san'ati ko`rgazmasida namoyish etilgan edi. Xozir Texronda shoxanshox kutubxonasida saqlanadi. Biz Mir Alisher Navoiy suratini ko`zdan kechirar ekanmiz, u usta san'at egasi tomonidan chizilganligiga shubxa qilmaydi. U shoirning yuksak chog'larini tasvirlab, chehrasi ancha manodor chizilganligini aniq namoyon etib turibdi. Uning ko`zlari risolidek, kimnidir diqqat bilan, bor fikri zikri bilan tinglayotgandek tuyulardi. Surat yuqorisida «Sur'atiy Amiri Kabir Mir Alisher» degan yozuv bor.

XVIII asrda Movarounnaxr

O`rta Osiyo miniatyurasining badiiy qiymatini o`ziga xos xususiyatlari so`nggi taraqqiyot davrigacha bu san'at turi o`zgaruvchan tarixiy madaniy sharoitlarga moslashib, yashashda davom etgani, moddiy va ma'naviy borliqni o`zgartirmoq va in'ikos ettirmoqning yangidan - yangi usullarini ishlab chiqishda davom etganini o`rganishni taqozo etadi. O`rta Sharq xususan Kojar va Kashmir miniatyurasi va shu bilan birgalikda O`rta Osiyo miniatyurasini o`rganilmadi.

XVIII asrning oxiriga kelib, xo`jalik axvoli izga tushdi. Buxoro amirligi, Xorazm va Qo`qon xonliklari mavqeini mustaxkamlanishi iqtisodiy taraqqiyotga, madaniy rivojlantirishga va kitob san'ati ustalarining ishining jonlanishiga olib keladi.

1.3 Miniatyurani ishlash va badiiy bezash xususiyatlari

Muallif yoki bosh qaxramon «portreti» ichki kechinmalarini tasvirlovchi saxnalar suxbat mavzusi beriladigan bo`ldi. Avliyolar payg`ambarni tasvirlash mavzulari cheklana bordi. Jang, ov sanalari vasfiy mavzularga munosabat bir muncha o`zgaradi. Mustaqil peyzaj kompozisiyalari yo`qoladi. Ko`p kishilik bazm manzaralari kam figurali soqiylar bilan almashinadi. Yangi kompozitsion yechimlar, sxemalar paydo bo`ladi. Keyingi davr qo`lyozmalarida miniatyuraning O`rta asr uslubiga pala-partish rioya qilishi va personajlarning tarkibiy xarakteristikasiga aloxida - aloxida urg`u berish sezilib turiladi.

Xarakterli belgi sifatida me'moriy bezak tarzida boburiylar davri oq marmar inshooatlaridan nisbatan ilgarigi yolg`iz daraxt yoki peyzash fonini yassi perspektiv qisqartmalarsiz tasvirlovchi Eron O`rta Osiyo usulidan foydalanishni ta'kidlash mumkin. Ularda Kashmir etnik tipik zargarlik taqinchoqlarga boy milliy kiyimda tasvirlanib yashil va ko`kimtir ranglar bilan birga noranjiy rang, qizil oltin ranglarning munosib uyg'unlashuvini ko`ramiz.

Kashmircha uslubda ishlangan O`rta Osiyo miniatyuralarida uning jixatlari kompozitsion qurilish me'moriy fon ifoda etiladi. Ammo etnik tipik va koloritda muayyan o`zgarishlar mavjud.

Soddalik folklor rasmlar uning tabiiy rivoji va ichki buzilish jarayoni sezilgan klassik miniatyurani qayta qurilish natijasidir.

O`rta Osiyo miniatyurasining badiiy qiymatini o`ziga xos xususiyatlari so`nggi taraqqiyot davrigacha bu san'at turi o`zgaruvchan tarixiy madaniy sharoitlarga moslashib, yashashda davom etgani, moddiy va ma'naviy borliqni o`zgartirmoq - yangi usullarini ishlab chiqishda davom etganini o`rganishni taqozo etadi. O`rta Sharq xususan Kojar va Kashmir miniatyurasi va shu bilan birgalikda O`rta Osiyo miniatyurasini o`rganilmadi. XVIII asrning oxiriga kelib, xo`jalik axvoli izga tushdi. Buxoro amirligi, Xorazm va Qo`qon xonliklari mavqeini mustaxkamlanishi iqtisodiy taraqqiyotga, madaniy rivojlantirishga va kitob san'ati ustalarining ishining jonlanishiga olib keladi.

Badiiy bezakli qo'lyozmalar tuzish xarakteri va usuliga ta'sir ko'rsatgan faktorlardan eng muximi qarama-qarshi kuch va sharoitlarning diolektik birligi va kurashi bo'ldi. XV asr O'rta Osiyo adabiy xayoti Eron bilan bog'liq bo'lsa XVII - XVIII asrlarda safaviylar Eron va mazxabini rasman qabul qilganlaridan keyin Movorounnaxr-Eron bilan munosabatlarni uzadi. Usmoniy, Turkiya, Kashmir, Shimoliy Xindistonga e'tiborini qaratadi.

Shimoliy Xindiston va Turkiyada kitob chop etila boshlangach, kitoblar O'rta Osiyoga keltirila boshlaydi. Xind musulmon madaniyatining yirik markazlaridan biri Bombey Kanpur, Lakxnau, Kashmir O'rta Osiyoga kitob yetkazib bera boshladi. Bu kitoblar arab, fors tillardagi diniy falsafiy xuquq, tarix va boshqalarga doir edi. Bu kitoblar O'rta Osiyoda Kashmir usulida bajarilgan miniatyuralar paydo bo'la boshladi. Qo'lyozma asarlariga chekiladigan rasmlarning uslubiy xususiyatlari va xarakteriga 1864 yil Turkiston o'lkasining Rossiyaga qo'shib olinishidek muxim voqea chuqur ta'sir qiladi. Siyosatdagi o'zgarish iqtisodiy va madaniy xayotdagi siljishlar Yevropa madaniyati ta'sirning kuchayishi o'lka ma'naviy sharoitida burilish yasaydi.

Keyingi davrda musavvir shaxsiga axamiyat berilmasdi. Ilgarigidek musavvir imzosi deyarli qo'yilmasdi. Badiiy bezakli qo'lyozmalar bir necha unut bo'lgan O'rta Osiyolik musavvirlar ismini bizgacha asrab keldi. Bular ichiga mashxur buxorolik musavvir Axmad Donish Mir Muxammad Sidiq (Xashmat), Amir Muzaffarning «Gunoxkor» o'g'li Qo'qonlik Muxammad Amin Kosoniy Muxammad Shokirboy, Xoja Nosir (XIX asr ikkinchi yarmi).

Ammo O'rta Osiyo an'anaviy asarlariga xos davr o'tishi bilan torayib borayotgan mutanosib davrga moyillik seziladi. Keyingi davr O'rta Osiyo miniatyurasi «Sayoxatnomalar» geografik asarlar xam tasvirlar bilan bezatilgan. Ilgari tasvirlar bilan bezash rasm bo'lgan Firdavsiyning «Shoxnoma»si, Nizomiy «Xamsa»si, Xofiz «Devon» lari, Sa'diy asarlari bezatilmadi. Ilgarigi mashxur tarixiy asarlar xam yo'q.

II. MINIATYURA SAN'ATIDA ISHLASHNING O'ZIGA XOSLIGI

2.1 O'rta Osiyo miniatyura san'ati asoschisi Kamoliddin Bexzod

Moniy mo'yqalamga o'xshash rassomlik mo'yqalami butun dunyo Musavvirlarini unutishga majbur qiladi. Uning ajoyib va mu'jizakor barmoqlarini esa Odam Atoning avlodlari orqasiga barcha rassomlarning asarlarini xirs qilib qo'yadi. Sof haqiqatni o'zida mujassam etgan zamonimiz ajoyiboti bo'lgan bu musavvir hozirgi paytda butun Dunyo xukumdorlarining marxamatiga sazovor. Buyuk rassomning zamondoshlaridan biri bo'lgan xiroflik tarixchi Xondamir o'zining «Xabab us-siyar» asarida Bexzod xaqida xayratlanib ana shunday yozgan edi. «Rassomlar xaqidagi mashxur risolaning muallifi qozi Axmad musavvir xaqida!» qisqa bir vaqt orasida Bexzod shu darajada moxir musavvir bo'lib yetadiki, rang tasvir paydo bo'lgandan buyon bu soxada san'at axli orasida unga teng keladigan yo'q edi, - deb yozadi.

«Kamoliddin Bexzod zamondosh mo'yqalam soxiblari orasida eng yaxshi musavvir xattotlarning boshlig'i o'z san'atining cho'qqisiga erishgan ulug'lardan edi» - deydi boshqa bir zamondoshi. Rassom va xattot Do'stmuxammad Bexzodning shuxrati Sharqning buyuk miniatyurachisi bo'lmish shuxrati naqadar baland bo'lganligini ko'rsatadi. Bexzod qadimgi Xurosonning katta shaxarlaridan birida temuriylar poytaxti Xirotda 1455 yilda tug'iladi. Tarixiy asarlarda yozilishicha Bexzod ota-onadan juda erta yetim qolib taniqli xirof xattoti va rassomi Mirak naqqosh Xurosoniy qo'lida tarbiya oldi. Mirak naqqosh Xuroson xukumdori Sulton Xusayn (1465-1506) saroyida shox kutubxonasining boshqaruvchisi kitobdor vazifasida ishladi. Mirak naqqosh Bexzodning ustozlaridan biri edi. Uning miniatyura san'ati bo'yicha ustozlaridan yana biri Buxorolik ustoz Jaxongirning shogirdi mashxur rassom pir Sayid Tabriziy bo'lgan. Uning ustodlari o'z zimmasining mashxur rassomlari edi. Bexzodning asarlaridagi o'ziga xos xususiyatlaridan ustozlarning ta'siri kattadir. Sulton Xusayn Boyqaro zamonida qirof o'zining

rassomga boʻlgan xurmatini aniq bildirish maqsadida Shox Ismoil 1522 yilda maxsus buyruq bilan Bexzodni Shox kutubxonasining boshligʻi kitobdor qilib tayinlaydi.

Keksayib saksonlarga borib qolgan rassom vataniga qaytib kelgach, 1535-36 yillarda Xirotda vafot etadi. Uning portretini Tabrizda yashagan rassom tomonidan ishlangan portret saqlanib qolgan. Uning qomati bir muncha bukchaygan xolda tasvirlangan. Bexzod yaratgan asarlarning aniq bir xisobi yoʻq edi. U yaratgan asarlarda xattoki imzo chekilmagan. Bexzod oʻz ishlarida Sheroz, Tabriz va Xirotda miniatyura maktablarining muvaffaqiyatlari ajoyib ravishda uygʻunlashtiriladi.

Rassom oʻzining yoshlik yillarida ishlagan ilk asarlaridayoq xatni jiddiy kuzatuvchi moxir san'atkor ekanini koʻrsatadi. Bexzod illyustrasiya qilinadigan qoʻlyozmadan shunaqa syujetlarni tanlab oladiki, bu syujetlar uningcha xayotning turli lavxalarini, mavjudotini doimo xarakatda ekanini koʻrsatish lozim. Shungacha va shundan keyingi devorlarda yaratilgan kompozitsiyalarda Bexzod uncha katta boʻlmagan juda keskin xarakat va katta kenglikni oʻzida mujassamlatirgan miniatyuralarni yaratish uchun aloxida bir usulni qoʻllaydi u figuralarni miniatyura ramkalari bilan kesib qoʻyadi va ushbu usul bilan tomoshabinning xayotida xarakat davom etayotganining tasavvurini tuqdiradi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asariga ishlangan Xiva qal'asining qamal qilinishi nomli asarida aniq detallarni koʻrish mumkin.

Bexzodning masjid qurilishi tasvirlanayotgan asarida esa ishlarining borishini keng koʻlamda koʻrsatib bergan. Bu miniatyuralarga qarab turib, odam ish juda kizgʻin ketayotganini koʻrish mumkin. Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida Farhod jasoratini qanchalik kuylangan boʻlsa, Bexzod xam oʻz miniatyuralarida Xirotda shaxrini obod qilgan nomsiz ustalar va xunarmandlarni muxabbat bilan tasvirlaydi. Sa'diyning shaxri Oʻrta Sharqda unga teng keladigan shaxar yoʻq edi. Xirotda shaxri me'morchiligiga masjidlarning salobatligi bilan madrasalarni, mexmonxonalar, shifoxonalar, xammomlarning

barcha qurilish binolarining aniq qurilmalari uni bezab turgan naqshinkor koshinlari kishilarni xayratga solgan. Bu yerda miniatyura va xattotlik asarlarining eng yaxshi namunalari ishlanardi. Sulton Xusaynning zamondoshlari Jomiy, Navoiy, Mirxond va Xondamir chiroyli xusnixat mualliflari xattot Sulton Ali, Mashxadiy Kamoliddin Bexzod o'sha paytlarda Xirotning gultojilari edilar. Sulton Xusaynning o'zi xam shoir bo'lib, nafis san'atning nozik bilimdoni sifatida ijodkorlarga xomiylik qilardi. Buyuk Bexzodning shakllanishida Navoiy katta ta'sir ko'rsatadi. Buyuk ustoz o'zining mashxur musavvirlariga Amir Nizomiddin Alisher Navoiyning marxamati va g'amxo'rligi tufayligina erishdi deydi tarixchi Xondamir. XV asrning 90 yillarida Sulton Xusayn Boyqaro Bexzodni o'z kutubxonasiga boshliq qilib tayinlaydi. U Sharqning buyuk yozuvchisi va shoirlarining asarlariga miniatyura chizishni buyurar edi. Sulton Xusayn xattot o'z boqida Bexzodga ijodxona qurdirgan. Uning ishidan zavqlanish uchun uni oldiga tez-tez kelib turar edi. Bu bilan dunyoning tashvishlarini birmuncha unutganday bo'lardi. 1537 yilda Sulton Xusayn vafot etdi. Shayboniyxon Xirotni bosib oldi. Bexzod Xirotda qolib o'z ijodini davom ettirdi. Shaybonixon xam bilimdon xukumdor bo'lib rassomga aloxida e'tibor beradi va unga o'z portretini chizishni buyuradi. Shayboniyxon xalokatidan so'ng 1510 yil Xirotni shox Ismoil bosib oladi. Bexzod boshqa bir xukumdor xarakatiga o'tishga majbur bo'ladi va safaviylar poytaxti Tabrizga boradi. Shox Ismoil Bexzod ijodini yuqori baxolaydi.

1514 yilda Childiran yonidagi jangda muvaffakqiyatsizlikka uchragan Shox Ismoil qaytib kelib ularning axvollarini so'rattirgan. Bo'ston asarida mashxur Doro cho'pon miniatyurasi Navoiyning insonparvarlik g'oyalari ta'siri ostida yaratilgan. Bu miniatyurada qoyali tog'lar, ba'zi joylar butalar bilan qoplangan yam-yashil o'tloq, cho'ponlar va otlar yorqin bo'yoqlar ostida biri biri bilan uyg'unlashib ketgan. Bu asarida xam Bexzod baytal onasini emayotgan toychoq va qimiz quyayotgan cho'pon bola kabi xaqqoniy va xayotiy lavxalarni tasvirlaydi. Ayniqsa, cho'pon qomati juda ta'sirchan chiqqan.

Badiiy bezatilgan Sharq qo'lyozma kitoblari, Kitobat san'ati xam ilmiy - tarixiy, xam badiiy - estetik, xam ma'naviy - ma'rifiy qiymati bilan umumjaxon madaniyati xazinasi bilan noyob san'at asarlari sifatida munosib o'rin egallagan. Ushbu san'atning tarkibiy qismi, Sharq xalqlarining mushtarak badiiy merosi va iftixori bo'lmish miniatyura san'ati ko'p yillar mobaynida asosan sharqshunoslar, etnograflar, san'atshunoslar, filologlar va tarixchilarning diqqat markazida bo'lib keldi. Umumta'lim maktablari, maktabdan tashqari o'quv tarbiyaviy muassasalari, qolaversa o'rta va oliy san'at o'quv yurtlarining bu san'at turining tarbiyaviy imkoniyatlari pedagogik jarayonda to'laqonli foydalanilmadi. Zero, yosh avlodni bu san'at turiga jalb etish ko'pgina o'quv tarbiyaviy muammolarni ijobiy xal etish imkoniyatlarini ochib beradi.

Chunonchi, Sharq miniatyura san'atining yetuk tasviriy san'at turi sifatida uning mazmuni, g'oyasini badiiy estetik idrok etish jarayonida ularda tasvirlangan ijtimoiy xayot, tarixiy evalyusiyalar, personajlarning ichki dunyosi, adabiy asar miniatyura mualliflarini aks ettirayotgan voqea va xodisalarga nisbatan ifodalangan o'zlarining falsafiy muloxazalari, qarashlari, bu voqea va xodisalardagi etnik xususiyatlarni anglab yetish, baxo berish va ular asosida o'z munosabatlarini amaliy, tasviriy ko'rinishda ifodalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalani bir tomoni. Yana bir muxim masala - o'quvchilarga Sharq miniatyura san'atining jaxon madaniyatida tutgan o'rni, Sharq miniatyura maktablari va markazlari, ularda mavjud bo'lgan badiiy umumiylik va tafovutlarning sabablari, bu maktablarni zabardast vakillari xaqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Shuningdek, Sharq miniatyura san'atining mustaqil san'at turi sifatida shakllanish tarixi, uning san'atning boshqa turlari, xususan adabiyot bilan bog'liqligi, xar bir asardagi taraqqiyot darajalarini shu zamonni ijtimoiy - siyosiy va madaniy xayoti bilan bog'liqligi xaqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

Sharq miniatyura san'atini o'rganish, ayniqsa uning tasviriy usullari aks ettirilgan tasviriy lavxalarda milliy xarakterdagi qarashlarni qo'llash usullaridan boxabar bo'lish bilan bir qatorda ularni turlashtirish prinsiplari bilan xam tanish

bo`ladilar. Masalan o`rganiladigan asar personajlarining o`rganish jarayoni to`g`arak qatnashchilari uchun samarali bo`ladi. Faqat Sharq miniatyuralaridagi qaxramonlarning o`rganish jarayoni qator tarbiyaviy – pedagogik masalalarning yechimini ochib berish va xalq etish imkonini beradi. Jumladan bu jarayonda o`quvchilar Sharq miniatyura san'atidagi o`ziga xos tasviriy usullardan tashqari tasvirlangan personajlarning liboslarini o`rganish orqali ilmiy va badiiy ahamiyat kasb etuvchi tarixiy sana va voqealardan voqif bo`ladilar, personajlarning tabaqasi, yosh kategoriyasi xamda kasbi-kori to`g`risida tasavvur oladilar. Nixoyat, o`quvchilar o`zlarining ijodiy ishlarida tasvirlashda miniatyura janrida ijod qilayotgan zamondosh rassomlarining asarlari bilan tarixiy asarlarni qiyosiy o`rganish jarayonida badiiy an'analarni idrok etish va bu an'analarni hozirgi xalq san'atida davom ettirilishi to`g`risida nazariy va amaliy taassurotlarga ega bo`ladilar. Xuddi shu tamoyil asosida Sharq miniatyura san'atida o`z ifodasini topgan badiiy naqqoshlik va ganchkorlik namunalari, ayniqsa saroylar, qabulxonalar, istiqomat qiladigan joylarning, interyerlarini bezashda sharqona me'morchilikdagi an'analarni qo`llanish xususida ma'lumotni boyitadilar. Sharq miniatyura san'atida Kamoliddin Bexzod va uning takrorlanmas badiiy tasviriy maxorat maktabi san'atdagi kamolot namunasi bo`lgan bo`lsa, Temuriylar davri ilm - fani, ayniqsa adabiyotga miniatyura san'ati yuksaklikka erishdi. Umuman ilm - fan va madaniyatning oltin asri bo`lib tarixga kirdi.

Miniatyura san'ati asarlarini idrok etishda uning funksional vazifalari badiiy bezatilgan qo`lyozma asarlarining tarkibiy qismi, ajralmas badiiy – grafik elementi sifatida qarash lozim. Bunday yondashish o`quvchilarning bu durdona san'atdagi sintezni ilqash, ularning xamoxangligini ta'minlovchi omillarni aniqlash va taxlil qilish imkonini beradi. Jumladan suz bilan tasvir birligidagi badiiy matn va badiiy tasvir sintezi, badiiy bezatilgan kulyozma asarlarini yaratilishida turli kasb egalari - xattot, nakkosh, muzaxxib, lovvox va musavvirlarning ijodiy xamkorligining samarali yuksak badiiy kiymatga ega

bulgan, badiiy jihatdan mukammal bezatilgan kulyozma asarlarini yaratilishini asosiy zamini ekanligi xakida taassurotga ega bo'ladilar. Masalaga shu tariqa yondashish xattotlik badiiy nakkoshlik kabi miniatyura san'atiga alokador bulgan san'at turlaridan aloxida mashqulotlar qtkazish imkonini berildi. Sharq miniatyura san'atini umumta'lim maktablari sharoitida urganishga qaratilgan va unda yukorida sanab utilgan vazifalarni xal etish kuyidagi asosiy pedagogik muammolarni yechish bila bog'liq xolda olib boriladi. Chunonchi, san'at vositasida o'quvchilar ongiga Sharqona falsafiy dunekarash, axloq me'yorlarini singdirish, miniatyura san'atining rivojlanish boskichlarini urganish orqali xalqimizning madaniy tarixini, badiiy an'analarini o'zlashtirish, Sharqona badiiy - tasviriy kamolot borasidagi bilim va malakalarini oshirish yo'li bilan o'quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish imkonini yaratishi zarur.

Asbob uskunalar va ulardan foydalanish.

Xar bir fanning o'ziga xos o'quv quroli bulgani kabi miniatyura fani uchun xam, turli xildagi o'quv qurollari adabiyotlar, turli tuman xom ashyolar kerak.

Birinchi bo'lib adabiyotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, X.Sulaymonov Nizomiyning "Xamsa" siga ishlangan miniatyuralari "Amir Xisrav Dexlaviy asarlariga ishlangan rasmlar", Navoiyning "Xamsa" siga ishlangan rasmlar, "Boburnoma" asariga ishlangan rasmlar. Bu adabiyotlarning xammasi talabaga miniatyura fanini tez tasavvur xosil qilib fanni o'zlashtirishda yordam beradi.

O'quv qurollari: Sharq miniatyurasini ishlash uchun aloxida o'quv qurollari mavjud. Qadimda Sharqda miniatyura asarlari asosan kitob bezash uchun ishlatilgan. Misol uchun, Firdavsiyning "Shoxnoma", Xayyomning ruboiylari, Nizomiy, Dexlaviy, Navoiyning "Xamsa" asarlari. Bu xildagi adabiyot durdonalarini Kamoliddin Bexzod, Maxmud Muzaxxib, Og'a Rizo, Rizo Abbosiy, Muxammad Zamon kabi miniatyura ustalari tomonidan kitoblar bezalgan. Bu adabiyotlarning qog'ozlari maxsus tayyorlangan bo'lib, ular xattotlik va mu'jaz rasmlar ishlash uchun juda qulay bo'lgan. Undan tashqari

turli xildagi qilqalamlar, mo'y qalamlari ustalar tomonidan yasalgan. Turli o'simlik elimlaridan, tuproqlardan, pigmentlar tayyorlangan.

Miniatyura ishlashning boshqa turi - ya'ni maxalliy materiallarga ishlash. Maxalliy materiallarning bir qancha turi mavjud: nosqovoq, chilim qovoq, to'r qovoq, turli tuman tomosha qovoqlar. Bu materiallarga mo'jaz rasmlar ishlash uchun ularni uzlari turli texnologiyalar asosida maxsus tayyorgarlik bosqichidan o'tkaziladi. Turli ustalar qovoqlarni turli yo'llar bilan tayyorlaydilar. Kimdir qovoqlar ichiga yog quysa, kimdir mol yoki qo'y gungiga 1-3 oylab ko'mib, qovoqlar yuzasida turli shakllar xosil qiladi va tayyor bo'lgan yuzaga pigmentlar, temperalar yordamida miniatyura rasmlari ishlanadi. Rasmning so'nggi bosqichi tugallangandan so'ng qovoqlar darxol maxsus loklarda laklanadi. Lok maxsus quritma pechlarda quritiladi.

Lokli miniatyura san'ati: miniatyuraning eng murakkab turi xisoblanib, san'atning bu turi uchun maxsus o'quv qurollari va turli tuman xom-ashyolar qo'llanadi. Bu bo'limda asosan quticha yasash texnologiyasi va unga ketadigan xom-ashyolar xaqida ma'lumotlar beriladi. Quticha yasash uchun kerakli o'quv qurollari ro'yxati:

1. Qalam.
2. Lineyka .
3. O'chirg'ich.
4. Vatman.
5. Xromizatsiya.

Preslash uchun moslamalar: PVA kleyi, skalpel, qum qog'ozlar, tosh qog'ozlar, guash bo'yoqlar, mo'y qalamlar, laklar, qurilish pechlari va yana bir qancha xom-ashyolar va elektrotexnika buyumlari mavjud.

Elektr pechlari va dazmollardan foydalanilayotganda, texnika xavfsizligiga qattiq rioya qilinishi zarur.

Samarqand miniatyura maktablari va uning namoyondalari.

Miniatyura maktablari Sharqda juda rivojlangan bo'lib, turli nomlar bilan

ataladi. Misol, "Buxoro maktabi", "Boburiylar" miniatyura maktabi, "Sheroz" maktabi, "Asfaxon" maktabi, "Yazd" maktabi, "Bag'dod" maktabi, "Tabriz " maktabi kabi yirik tasviriy san'at markazlari mavjud bo'lgan. Temur va Temuriylar davrida Samarqand o'zining ravnaq topishi tufayli jahonni va G'arbiy Evropa davlatlarini ham lol qoldirgan edi. Ammo Samarqand miniatyura maktabi to'liq yoritilmagan. Sharqning "Rafaeli" hisoblanmish K.Bexzod boshchiligida kamol topgan Hirot maktabining shakllanishida Samarqand miniatyura maktabining tutgan o'rni muhimdir. Samarqand Temuriylar davrida ilm-fan, san'at ravnaq topgan davlatning poytaxti edi. Hirot maktabi Samarqanddek san'at va madaniyat o'chog'ining ajralmas bir qismi bo'lgan. Samarqandga bostirib kelgan arablar ilk bor qog'ozni Samarqand shahrida ko'rishgan va lol qolishgan. Aniq tarixiy ma'lumotlarga ko'ra K.Behzod miniatyura san'atini Pir Said Ahmad Tabriziydan o'rgangan. Pir Said Tabriziy esa "Umday ul-musavvir" (musavvirlar peshvosi) nomi bilan mashhur Buxorolik ustoz Jahongirning suyuqli shogirdi bo'lgan. Ustoz Jahongir esa temuriylar davlati tasviriy san'atining asoschisi ustoz Gung (Soqov)dan tahsil olgan.

Demak, Samarqand tasviriy san'at maktabi o'ziga xos tahlilni kutub yotibdi. Ayniqsa "Samarqand devoridagi jang" asari (Turkiyada "Yulduz" kutubxonasida) saqlanmoqda. Bu asarlarda Samarqand tasviriy san'at maktabiga xos portretlar aniqligi va tabiat manzarasini yorqinligi bilan miniatyuralarga o'ziga xos uslub baxsh etgan. 1441-42 yillarda noma'lum musavvirlar tomonidan Mirzo Ulug'bek tasvirining yaratilish davri Hirot maktabidan ham avvalroq Samarqandda keng rivojlanganligining isbotidir. Ayniqsa, "Sohibqironning bo'ladigan jang oldi majlisi" miniatyura asari diqqatiga sazovardir.

Bu asarda Temur va uning ayonlarining surati chzilgan. Bu asarga "Xalil Mirzo Shoxrux" deb imzo chekilgan. Boburiy "Jahongirning" guvohligida "Agarda tasvirda musavvir nomi aniq qilib yozilmaganda edi, bu asarni

K.Behzod mo'yqalamiga mansub deyish mumkin edi". Chunki bu ish uslubiy jihatdan K.Behzod ijodiy maktabini eslatadi. K.Behzod faoliyatidan ancha avval yaratilgan bu asarning muallifi Xalil Mirzo Shoxruh o'z navbatida ustoz Behzodning ustoz bo'lgan. Ammo Jahongir ta'riflab ketgan bu asar hali chop etilmagan.

Lekin XIII-XIV asrga mansub bo'lgan bu asar muallifining asl ismi Xalil Mirzo Shoxruh bo'lmagan, chunki o'sha davrda Osiyolik musavvirlar o'z asarining tagiga imzo chekish odati bo'lmagan. Amir Temurning hayotligida boshlangan bu asar uning o'limidan keyin ham davom ettirilgan. Sohibqiron Temur vafotidan keyin Samarqand taxtini egallagan Xalil Mirzoga ham bag'ishlangan bu asarning nihoyasi paytida taxtga Shoxruh Mirzo o'tirgan. Ammo O'rta Osiyodagi Samarqand miniatyura maktablarida portret janri va tarixiy voqealar bayoni miniatyurachilarning izchil mavzusiga aylangan.

Samarqandlik musavvirlar Ma'sud ibn Usmoniy Ko'histoniyning Abdulxayirxon tarixi asariga chizilgan "Chingizxonning Sirdaryo sohillarida o'z o'g'illarini qabul etishi", "Gazanxon Urg'onda", "Abdullaxon portreti" va Xotifiyning "Temurnoma" asariga ishlangan "Temurning Hindistonga yurishi", Sharafiddinning Ali Yazdiy "Zafarnoma" asariga ishlangan "Temur Samarqand atrofida bazmi jamshida" miniatyuralari yuqoridagilarning tasdig'idir. Samarqand miniatyura maktabining namoyondalaridan Muhammad Murod Samarqandiy, Muhammad Nosir Samarqandiy Mir Said Ali (Tabriziy tahallusini olimlar unga berib, Eron miniatyura maktabiga mansub deb yangi ko'rsatma berib kelganlar, aslida esa Termizlik)lardir.

Mir Sayid Alining otasi Mir Mansur mohir musavvir bo'lgan. Osiyodan Hindistonga kelib ijodiy faoliyatlarini davom ettirishgan.

Musavvirlardan Muhammad Nosir Samarqandiyning o'n bitta asari Britaniya muzeyida, Parij va Leningrad ilmiy muassasalarida esa bittadan imzo chekkan portretlari saqlanmoqda.

Mir Said Ali va qisman Xo'ja Abdusamad mo'yqalamiga mansub

Temuriylar xonadoni asari ham juda mashhurdir. Ular Xumoyun, Akbar Jahongir, Shoh Jahon, Shoxruh Mirzo, Bobur, Sulton Muhammad va Mironshohlarning tasvirlaridir. Bu asarlar Londonda "Britaniya" muzeyida saqlanmoqda. Xulosa qilib aytganda Samarqand miniatyura maktabining sobiq talabalari asarlarini keng o'rganish, qidirib topish, shunday maktablar mavjudligini, ishlash usullarini omillashtirish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biridir.

1955 yildan boshlab pedagogik institutlar huzurida badiiy grafika fakultetlarning tarmoqlari tuzildi. Shu yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat institutida ham shunday fakultet ochildi. Bugungi kunda Buxoro va Namanganda, Jizzaxda ham badiiy grafika fakultetlari ochilgan. Mana shu institutlarda, rassomlar akademiyasida, sobiq ittifoq pedagogika fanlar akademiyasida, o'qituvchilar malakasini oshirish institutlarida rasm o'qitish metodikasini ishlab chiqishga kirishildi. Umumta'lim maktablarida rasm o'qitish metodikasini rivojlantirish va ilmiy ishlab chiqish uchun qulay imkoniyatlar paydo bo'ldi.

1970 yilda yangi o'quv programmalari ishlab chiqildi va ta'sis etildi. Estetik tarbiya vazifalarining kengaytirilishi, o'tmishdagi buyuk rassomlarning metodlarini ijodlarini o'rganish natijasida "Rasm" fani o'rniga yangi o'quv predmeti "Tasviriy san'at" fani paydo bo'ldi.

O'quvchilarning nafosat tuyg'usi va ijodkorlik qobiliyatini o'stirish uchun qarorda ko'rsatib o'tilganidek, estetik turkumdagi predmetlardan unumli foydalanish kerak: ayniqsa adabiyot, muzika, tasviriy san'at, estetikaning badiiy ta'lim tarbiyaning imkoniyatlaridan yaxshiroq foydalanishni nazarda tutiladi.

2.2 Rishton sopol buyumlarini ishlanishi va xususiyatlari

Rishton O'zbekistondagi sirlangan sopol buyumlari ishlanadigan eng mashhur va kadimiy markazlardan biri. XIX asr oxiri XX asr boshlarida axolisining deyarli xammasi kulollardan iborat edi. Fargona vodiysidagi barcha kulolchilik markazlari azaldan Rishton kulolchilik ta'siri ostida bulgan. Ushbu tumanda xar kanday turdagi buyumlarni yasash uchun yarakli bulgan, aloxida navli kulolchilik gilining mavjudligi bunga asos bula oladi. Qizg'ish-sarg'ish rangli ajoyib gil Rishtonning deyarli butun xududida 1–1,5 m chuqurlikda qatlam bo'lib joylashgan. Gilning yaxshi sifatligi maxalliy ustalarning uni O'zbekistonning boshqa tumanlaridagi kulollardan farqli ravishda oldindan tozalab boshqa turdagi tuproqlarga aralashmagan xolda ishlab chiqarishga jalb qilish imkonini beradi. Kulollar Rishton yaqinidagi tog'lardan xar xil bo'yoqlar, kvartslı qum va olovbardosh gillarni qazib olishgan. 1960 yillarda yuqorida eslatib o'tilgan moviy sopol buyumlari ishlab chiqariladigan an'anaviy markazlar barxam topa boshladi. Ana shunday sharoitda San'atshunoslarning Butunittifoq konferentsiyasi (Farg'ona 1974 yil) qabul qilingan moviy ishqorli sopol idishlari ishlab chiqarish an'analarini saqlab qolish haqidagi qarori amaliy axamiyat kasb etdi. Ushbu qaror ustalarga ma'qul tushdi. Ular oldingi ishlab chiqarishga qaytib buyumlarni bezashning an'anaviy shakllari va usullarini qayta tiklay boshladilar. Keyingi 20 yil ichida Rishton sopoli an'anaviy badiiy va texnologik usullar asosida yana qayta tiklandi. Ishqorli sir tayyorlash xam yo'lga qo'yildi. Rishton sopolchiligining maxalliy badiiy xususiyatlari ko'p jixatdan buyumlarga naqsh berilishida ko'zga tashlanadi. 1970-90 yillardagi girix bezaklar orasida to'rsimon naqsh, rombsimon naqsh, uchburchakli shakllarning bir maromda joylashtirilishi doirasimon shakllarning zanjir shaklida bir tekis berilishi nuqtali naqsh qora va oq kvadratchalarning navbat bilan o'rin almashishi shaklidagi naqsh egri va to'g'ri chiziqlar shaklidagi doiracha va tupbarggul shaklidagi mavxumiy geometrik bezaklar ko'p tarqaldi. O'simliksimon naqshlar ayniqsa turli-tuman va sermazmundir. O'simlik

dunyosiga oid mavzularni talqin qilishda ayniqsa an'anaviy belgilar bilan bu mavzularning yangicha talqinlari nisbatan yaqqol ko'zga tashlanadi.

Hayvonlarga oid va antropomorfik mavzular Rishton kulolchiligida «parchasi yaxliti uchun» tamoyiliga ko'ra taqdim etilgan. Unda inson, hayvonlar va parrandalarning gavdasini ayrim unsurlari yordamida yaxlitlik g'oyasi aks ettiriladi. 1970–1990 yillar Rishton kulolchiligining rivojiga quyidagi tamoyilni qayd qilish mumkin. Rishtonlik ustalar an'anaviy merosni astoydil e'zozlash bilan birga ancha dadillik va keskinlik bilan buyumlar shakllari talqini xamda naqshli bezaklar xarakteriga o'zgarishlar kiritishyapti. An'anaviy shakllarni va naqshlarni izchillik bilan to'laqonli qilib qayta tiklash an'analarga so'zsiz rioya qilish o'rnini yakka tartibdagi ijodiy tashabbuskorlik, yangicha usul va naqshin bezaklar turlarini kengaytirish egallab bormoqda.

Xumdonlar va elektropechlar bilan ishlashda yong'indan saqlanish va elektr texnika xavfsizligi choralari ko'rish

Xar bir ijodkorning ruxiy xolati, o'zi bajarayotgan buyumida o'z aksini topmasdan qolmaydi. Kishi ruxiyatini ko'tarishda esa xonaning ozodaligi, jixozlarning qulayligi muxim rol o'ynaydi. Kulolchilik xonasini jixozlashda xaykaltaroshlik xonalarini jixozlashning umumiy qoidalaridan kelib chiqqan xolda jixozlash qisman bo'lsada foydalanish maqsadga muvofiqdir. Xar bir asbob–uskunalar, xom–ashyolar, ko'rgazmali qurollar, talabalarning tayyor ishlari, dastgoxlar, elektropechlar tartibi bilan o'z joyiga quyilmog'i lozim.

Kulolchilik ustaxonasida bevosita talabaning foydalanadigan maydoni 50-55 m² bo'lsa, xar bir talabaning ish o'rni bir–biridan 60 sm, qatorlar orasida 1 m dan uzoqlikda bo'lsa, harakatlanish qulay bo'ladi. Ustaxonaga tabiiy yorug'lik tushishini ta'minlash, buning iloji bo'lmasa, kunduzgi yorug'lik lampalari bilan ta'minlash kerak.

Kulolchilik asarini yasash uchun talabadan moxir musavvirlikni, naqqoshlikni, xaykaltaroshlikni talab etadi.

Xar bir asbob uskunani yoki dastgoxni, elektropechni, xumdonlarni ishlatishning qonun-qoidalari mavjud. Talabanning bu texnologiya bilan tanishmagani turli baxtsiz xodisalarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ishlashdan oldin albatta maxsus ish kiyimini kiyib olish zarur. Xumdonda sopol buyumlar pishirishdan oldin xumdon atrofidagi buyumlar ko'zdan kechiriladi. Yong'indan saqlash choralari ko'rib chiqiladi. Elektroisitgichlarda ishlaganda uni isitishdan oldin barcha simlar, uzellarning butunligi ko'zdan kechiriladi. Agar ba'zi simlar izolyatsiyasi ochilib qolgan bo'lsa, elektropechlarni ishlatishga ruxsat etilmaydi. Topilgan kamchiliklar tuzatilgandan so'ng ishlashga ruxsat beriladi. Elektropech ishlatilib, unga buyumlar qo'yilib, eshiklari yopilgach uning issiqligi asta-sekinlik bilan ko'tarilib boradi. Bu vaqtda pechning eshigini xoxlagan vaqtda qayta-qayta ochish ta'qiqlanadi. Pech va buyumlar ma'lum muddatda sovigandan keyin olinishi mumkin. Agar sopol buyum tugri texnologiya asosida yasalgan bo'lsa, u xech qachon yorilmay chiqadi. Dastgoxda va xumdonda ishlash uchun mavjud qoidalarni o'zlashtirgan va ularga to'lik rioya qiladigan talabalarnigina maxsus daftarga imzo chekkandan keyin ruxsat etiladi.

Ustoz va shogird odobi.

O'zbekiston xalqlarining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o'rganish va taxlil qilish g'oyat muximdir. Respublikamiz xukumatining qator xujjatlari Vatanimizning har tomonlama jaxon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan. Ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jaxonga mashxur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu ma'noda Respublika xukumati tomonidan xalq ta'limi tizimini tubdan islox qilish maqsadida 1997 yil «Ta'lim to'g'risidagi»gi qonun va «Qaroplap tayyorlash bo'yicha milliy dastur» qabul qilindi. Unda O'zbekiston Respublikasining ta'lim soxasidagi siyosatini.

Umuminsoniy qadriyatlar, jamiyatning istiqbolidagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi» deyilgan.

Bizning ilmiy izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki. Qadimda ajdodlarimiz ustoz-shogird asosida yoshlarga hunar o'rgatish bo'yicha boy tajribaga egadir. Lekin keyingi vaqtlarda ajdodlarimizning boy me'rosidan hamda tajribalapidan to'liq foydalana olmayapmiz. Buning sabablaridan biri ustoz-shogird an'alarini chuqur urganmaganligimizdir. Ajdodlarimiz tajribalari yoritilgan adabiyotlarni ham etarli deb bo'lmaydi. Bundan tashqari ajdodlarimiz boy tajribalarini hozirda hunar o'rgatilayotgan joylarda. Chunonchi: Qoya'iy o'quv yurtlari, o'rta maxcuc kasb-hunar ta'lim muassasalarida ustoz va shogird asosida o'rgatayotgan ustaxonalarda. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida ustoz va shogird sharqona odobi to'liq o'rgatilmaslgi o'quvchi yoshdlrimizni axloq odobiga va bilim darajasiga, umuman, ular ma'naviyatining shakllamishiga salbiy ta'sir etayotganligining guvoxi bo'lamiz. Shuning uchun biz quyida Markaziy Osiyoda ustoz va shogird an'analari asosida kadrlar tayyorlash tarixi haqida fikr yuritmoqchimiz.

Qadimda usta tayyorlashning o'ziga xos milliy an'anaviy asoslari, urf-odatlar qonun-qoidalari, talablari bo'lgan.

Xalq hunarmandchiligida ustozlarning o'ziga yarasha ikki fazilatlar ya'ni shaxsiy va kasbiy fazilatlarining o'z mezon bo'lgan. Shu mezon asosida ustaga salbiy va ijobiy baho berganlar. Shuning uchuy ota o'z farzandini yakka shogirdlikka berishda ustaning yuqoridagi mehonga javob bera olish darajasini atroflicha o'rganib chiqadi.

Ya'ni «Yomon ustaga berma shogird etib, buzar u buzuq fe'lini o'rgatib», maqoliga asosan yaxshi ustaga «Suyagi bizniki, eti sizniki» degan an'ana bo'yicha topshirganlar.

“Bolani usta oldiga olib borish o'ziga yarasha tantana bo'lgan. Bolaning ota-onasi va qarindosh-urug'lari «bo'y» degan bo'g'irsoq va holvaytar qilib, ustaning xuzuriga kelganlar va «bolaning go'shti sizniki, suyagi bizniki», qa-

biladagi gaplar bilan uning ixtiyoriga topshirganlar. Keltirilgan pishiriqlar o'sha paytdayoq birgalikda tanovul etilgan. Usta bolaga hunar o'rgatishdan tashqari butun o'qish davomida oziq-ovqat bilan ham ta'minlab turgan. Ikkala kelishuvchi tomon orasida yozma ravishda shartnoma bo'lmagan. Kasb o'rgatish tekin bo'lgan».

Buning uchun ustoz shogirdiga mayda-chuyda uy ishlarini buyurgan. Keyin esa ustaga asbob-uskunalarni olib berib turish yoki xom-ashyoni tayyorlab turish, keyinchalik esa eshik derazalarni, ustunlarni o'rnatishga va naqshlarni o'yishga o'rgatgan. Ya'ni bolani yashash bilan birga hunar sirlarini oddiydan murakkabga qarab o'rgatib borgan. 3-4 yillardan so'ng yaxshi tajribali shogirdga usta 15-20 kun mobaynida pul ishlab kelishi uchun ruxsat bergan.

Shogirdga usta nomini berishining o'ziga xos urf-odatlar bo'lgan. Bu tantanali kun shogirdning ota-onasi uyida yoki ustaning uyida o'tkazilgan. Marosimga shogirdning qarindoshlari, ustozning qo'lida ishlayotgan shogirdlar, ustalar, mullalar qatnashgan. Ustalar kattasi oqsoqol yoki ustakalon yoki uning yordamchisi poykor usta nomini olayotgan shogirdning boshiga salla o'raydi. Chopon kiygizib beliga qiyiqcha bog'lanadi va masalan, duradgor yoki yog'och o'ymakor usta bo'ladigan bo'lsa belbog'iga tesha yoki arra qistirib qo'yiladi. Ustachilik qonun qoidalarida tarixi va duradgorlikning 12 qoidalari, insonlarga bo'lgan muxabbat, tartib-intizom, haqgo'ylik, o'z kasbini yurakdan yaxshi ko'radigan bo'lish va boshqalar o'rgatiladi. Odatda, shogirdga toza suv berishgan va undan bulgusi usta bir necha qultum ichgan. Shundan so'ng esa shogirdni «usta» degan unvon bilan ataganlar, ustalar va do'stlari uni tabriklaganlar. Keyin katta usta dasturxondan «Nonni suxta» nomli tandir nonni olib kschaning sababchi bo'lgan shogirdiga qarab «qaerga borsang ham o'zingni qilgan kulchangmi ko'rsatgin» deb beradi. Yosh usta nonni dasturxon ustiga qo'yadi.

Bundam urf-odatlarning har xil turlari bo'lgan. Ba'zi urf-odat bo'yicha bo'lguvchi ustaga biror-bir uyin mustaqil bezashga topshirganlar. U bo'lajak usta ishni bitkazgandan so'ng ustalar uning qilgan ishini tekshiradilar va baho beradilar. Agar ish ustalarga ma'qul tushsa, unda urf-odatlari bo'yicha shogirdga «usta» degan unvon berilgan. Shundan so'ng yosh ustaga boshqa shaharga borib mustaqil ishlashga ruxsat berilar edi. Yoki ba'zi yosh uchalap “xalifa”, ya'ni katta usta boshchiligida birga ishlab yurar edilar.

Ustalar tsex tariqasida katta va kichik duradgorlik, qurilish ishlari olib borib, ular tarkibiga quydagilar kirar edi. Boshliqlar: oqsoqol, Qolib, najorboshi: ularning o'rinbosari poykor; katta ustalar ustoz kalon; ustalar; ustaga yordamchi ustalar - xalifa, nimsherik; shogirdlar hamda mulla ham bo'lgan.

Oqsoqolni tayinlashda shahardagi eng katta tajribali ustalardan saylagan. Agar oqsoqol biror noxaq ish qilsa unda biror masjidga poykor, ya'ni oqsoqol yordamchisi va hamma ustalarning yig'ib qayta oqsoqol saylanar edi. Buxoroda esa oqsoqolni qayta saylash boshqacharoq edi. Ustalar Buxoro xoniga maxsus ariza yozar edilar.

Buxoroda XIX asr oxiri - XX asr boshlarida duradgorlar boshliqi usta G'ulom, O'ratepada esa usta Karim Kajarboshi (usto Abdu Karim Abduxoliqov) bo'lgan. Bu shaharlarga xattoki O'rta Osiyoning turli chekkalaridan ustalar kelib ishlaganlar. Aksincha o'ratepalik xalq ustalarini yuqori Zarafshon qishloqlarida masjid. Madrasa, turar joy binolarini: bezash uchun taklif etganlar. Ular naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik va boshqa ishlarni bajarganlar.

Ustalar uyushmasi ba'zi turar joylarga ustalarni ishlashga yuborganlar. Ularga ish xaqi tariqasida ishlagan joylarida kiyimlar, qo'y, sigir, echki, er yoki pul berar edilar.

Ustalar orasida o'ziga xos musobaqa ham bo'lgan, ularning ishlari ko'rgazma qilinib katta ustalar orasida baholangan, Masalan, O'ratepada Ko'k-Gumbaz maxallasida Mavlono Eshon maqbarasini ikki o'yma eshigini bajarish usto Karim Horrot va Abdu qodir Horrotlarga topshiriladi. Ular bittadan eshikni o'yib bezatadilar va ularning ikki tabaqali ikki eshiklari bir qancha katta ustalar orasida baholanadi. Usta Abduqodiriyning eshigi 70 oltin tanga, Usta Karimning eshigi 100 oltin tanga bilan baholanadi.

Usta Karimning eshigi yuqori baholanishining sababi eshikning yuqori yarim doira qismi umumiy naqshi kompozitsiyasiga yaxshi bog'langan edi. Abduqodir ustaniig eshigi uchli bo'lib, bino qurilishi kompozitsiyasiga unchalik mos kelmagan.

Ba'zi ustalar o'z ishiga berilgan baholariga kelisha olmas edi, shuning uchun bu holatda oqsoqol aralashib o'rtadagi kelishmovchilikni hal qilib berar edi.

1924 yilgacha O'rta Osiyoda boshqa hunar turlari ustalari kabi zardo'zlik ham juda ko'p bo'lgan. Chunonchi, Buxoroda 300 dan 350 nafargacha ustalar ishlagan. Hunarmandlar o'rta asr hunar shirkatlar ko'rinishidagi maxsus tashkilotga uyushgan edilar. "Zardo'zlik ishlari ustidai nazorat o'rnatuvchi bu tashkilot o'zining saylovchi ma'muriyatiga ega bo'lib, barcha rasm-rusmlarga va urf-odatlarga izchil amal qilar, tantana va yiqilishlar o'tkazib turar edilar. Bulardan tashqari, u ko'proq diniy ruhdagi ba'zi qoidalar majmuasini hamda zardo'zlik hunarining kelib chiqishi haqidagi afsonaviy rivoyatlarni o'z ichiga olgan, mazmun e'tibori bilan chex nizomiga o'xshab ketadigan o'z risolasiga ham ega edi".

Buxopo ustalarining zardo'zlik kasbi otadan bolaga meros bo'lib kelgan. Asli zardo'z bo'lgan oilaning o'g'li farzandi otasidan zardo'zlikni o'rganib, o'z navbatida u o'z bolalariga o'rgatgan. Pushti kamaridan o'g'li bo'lmagan otalar bu kasbni eng yaqin qarindoshlariga o'rgatganlar. Kasbning avloddan-avlodga meros qolishi odatdagi hol bo'lganiga qaramay, zardo'zlik ham boshqa kasblar

bilan bir qatordan o'rin olgan. Uning tarkibida biz misgarlikni ham, zargarlikni ham, dehqonlarni ko'rishimiz mumkin. Zardo'zlik kasbini o'rganish uchun 10—12, ayrim hollardagina undan kattaroq yoshdagi bolalarni jalb etganlar. Kasb o'rgatish tekin olib borilgan. Yangi shogirdga chinakam ta'lim berish ishlarini usta birdaniga boshlayvermagan. Dastlabki paytlarda shogird uy yumushlariga qarashgan, ustaxonani supirib-sidirgan, suv tashigan, bozor-uchar qilgan, tikuvchilarga yordam bergan. Oradan bir yil yo undan cal ko'proq muddat o'tgandagina unga tikish sirlari o'rgatila boshlagan. Shogirdga mablag' to'lash borasida ma'lum qoida bo'lmagan, hunar o'rgatish muddati ham cheklanmagan. Ta'lim berish 4 yildan 7 yilgacha davom etgan, bordi-yu shogirdi o'ta qobiliyatli chiqib qolsa, bunday malakali ishchisidan maxrum bo'lishni istamagan ustoz uni 8-10 yilgacha ham saqlagan. Bunday paytlarda shogird oqsoqolni o'rtaga solib, ustasi tezroq ruxsat berishni so'ragan. Bordi-yu shogirdning talabi o'rinli bo'lsa, oqsoqol ustadan shogirdiga yo oq fotixa berishni yoki bo'lmasa mehnatiga haq to'lash lozimligini aytgan. Adbatta, shogirdga to'lanadigan haq xalifalarga to'lanadigan haqdan ancha kam bo'lgan. Norozilik paydo bo'lmasligi uchun usta qisqa vaqt ichida zardo'zlik sirini puxta egallagan layoqatli shogirdlariga axyon-axyonda chetdan ish olishiga mone'lik qilmagan. Gap shundaki, tushgan daromadning kattagina qismi ustaga, undan ortgani shogirdga qolgan. Ta'lim muddatini o'tagan shogird ustozidan oq fotixa olgan. Shogirdning uyga qaytishi o'zi bir marosim bo'lgan. Bu marosim shogirdning zimmasiga tushib, zardo'zlik uyushmasi a'zolari ishtirokida uning uyida o'tkazilgan. Marosim kunida ustozga bosh-oyoq sarpo, tugun in'om qilingan. Bunday tugunlardan bobo, oqsoqol va poykor ham quruq qoldirilmagan, albatta. Ba'zi hollarda bechoraxol shogirdlarini kuzatar chog'ida, usta ularga ishni oson boshlashlari uchun kergi (chambarak), qaychi, tayyor gul singari ashyo va buyumlardan - berib yuborgan. Bordi-yu, oq fotixa olgan shogird iqtisodiy jixatdan nochor bo'lib, mustaqil ish boshlashga ko'zi etmasa, ustozning uyida qolib ishlashni so'ragan.

Bunday holda unga xalfa tarzida ishlash xuquqi berilib, har ikkala tomom ana shu shart asosida ish xaqini kelishib olgan. Feodalizm davridagi har qanday hunarmandchilik singari zardo'zlik ham muqaddas sanalgan, zardo'zlikning kelib chiqishi ham ilohiyona: Xazrati Yusuf eng birinchi usta zardo'z va eng birinchi ustoz, g'oyibona xomiy va pir bo'lmagan.

Bu haqda uncha katta bo'lmagan risola mavjud bo'lib, unda bu kasbning kelib chiqishi, qoidalari, har bir ishni boshlashdan oldin o'qiladigan duolar berilgan, zardo'zlik kasbining xomiysi «arvoxir»ga sig'inish uzoq vaqtgacha qoida bo'lib keldi. Ilk bahor kunlarida, xususan, «guli surh» ayyomida hamma zardo'zlar Buxoro yaqinidagi Baxovuddin qishlog'iga kelib, pirning haqiga qo'y so'yib, xudoyi qilganlar. Usta zardo'zlarning aytishicha, yaqin-yaqingacha «pir-zoda»lar bo'lib, ularni «risola»chi deyishgan. Xaftada ikki marta, yakshanba va payshanba kunlari risolachi barcha zardo'zlik ustaxonalarini aylanib chiqqan va odamlarni to'plab risola o'qigan, o'qiganlarini tafsivlab bergan. Odatda, qiroatxonlik dasturxon atrofiga davom etgan. Qiroatxon keyin risolachi tinglovchnlardan tushgan uncha-muncha nazir-niyozni belbog'iga tukkanda, fotixa o'qib, navbatdagi ustaxonaga yo'l olgan.

Har bir hunar ham odatda avloddan-avlodga o'tgan, begona bolalardan esa o'ta iste'dodli, shu hunarga mehr quyganlargina tanlab olingan. Chinakam o'ymakor ustalarni orzu qilgan kishilar uchun madrasada o'qigan bo'lishi, tarix, she'riyat va musiqa sirlaridan voqif bo'lishi, xatto musiqa asboblarini biroz chala bilishi shart qilib qo'yilgan. Ayrim ustalar shogirdlari uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar.

Masalan, ular shogirdidan pokizalikni, ish vaqtida chalg'imaslikni, egri va noma'qul ishlarga yaqin yo'lamaslikni qat'iy turib talab qilganlar. Shularning o'ziyoq xalqimiz qadim-qadimdan amaliy san'at turlarini nechog'li ardoqlaganini, ganchkorlik san'atidek mashaqqatli hunarni faqat eng munosib va fidoyi kishilargagina ishonib topshirigaganini ko'rsatadi.

«Em Usmon usta Rasulxojining qo'lida sakkiz yil ishladi. Besh yilgacha xaftalik ish xaqi o'n tiyindan oshmadi. Xar payshanba kuni oqshom Rasulxoji shogirdning qo'lga o'n tiyin berar, Usmon pulini olib bozorga shoshilar edi. O'n tiyiga o'nta – o'n ikkita non olib, uyiga borganida otasi, ikki singlisining quvonchi olamga sig'mas edi. Damma dam oladigan juma kuni xam shogirdga tinim yo'q edi. Bu kun Usmon ustrasining bog'ida xosildan shoxlar arzon bulg'ar shaftoli, o'riklarni terib, qishga qoqi tayyorlar, toklarni xomtok qilar edi.

Odatda shogird faqat usta buyurgan ishni qilishi kerak edi. Ustadan beruxsat shogird biron ishga urinsa yoki uning asboblariga teginsa kaltak erdi. Oltinchi yilga o'tganda Usmonning xaftalik ish xaqi ellik tiyiga, sakkizinchi yilga o'tganda esa kundalik ish xaqi bir sumga chiqdi. Bu paytda u imorat ishidagi oddiy chupgarchilikdan tortib, g'isht terish, suvoq, ganch o'ymakorligini mustaqil bajara oladigan bo'ldi.

Ustasi uni boylarning imoratlarida kuniga ikki so'mdan ishlatib, bir sumini o'ziga olar edi. Nixoyat sakkiz yil deganda Usmon ustasi, endigi ibora bilan aytganda, murabbiysi Rasulxojidan fotixa olib, usta nomiga ega bo'ladi». Mashxur ganchkor usta Usmon Ikromov xaqida shunday xikoya qilingan.

"Ustozga ta'zim" kitobidan (hunar) olingan ushbu parcha ilgari hunar o'rganish naqadar mashaqqatli bo'lganini, shogird o'z ustozini tomonidan ming bir chig'iriqqa solinganini ko'rsatadi. Lekin ustozlarning qattiqqulligi bejiz emas edi. Negaki, xar qanday hunarmandchilik, xususan, ganchkorlik kishidan o'ta nozik didli, sabr-toqatli bo'lishni taqozo etgan.

Mashxur me'mor usta A. Xaqqulov o'zining "Ta'mir san'ati" kitobida sevimli ustozini Usta Shamsining shogirdlariga bo'lgan munosabati xaqida shunday xotirlaydi: "O'smirlik yillarimda, ya'ni xalq amaliy san'atiga mexr qo'ygan dastlabki damlarimdan xurmatli ustozim o'zlarining yaqin do'stlari, ya'ni padari buzrukvorimdan meni shogirdlikka so'rab, "kelamsakda mening me'morchilik asboblarimga soxiblik qilsin", degan ezgu istaklarini bildiradilar.

Shu kundan boshlab me'morchilikning barcha siru-asrorlarini o'rgata boshladi. Usta Shamsi o'ta kamtarin, oddiy odam edi. Ammo shogirdlarini jondilidan sevar edi. Yuragimdagi gapni ochiq aytadigan bo'lsak, u bor mexri, bilimi va aqli-zakovatini shogirdlariga bag'ishlar edi. Men ana shunday zukkota'b va xushsuxan inson panoxida kamolga etganimdan xaligacha faxrlanaman. Xa Davlat mukofoti laureati, Mexnat ordeni soxibi, O'zbekistonda mashxur xalq ustasi Usta Shamsi xalq amaliy san'atining barcha murakkab jixatlarini juda chuqur bilar edi. U shogirdlaridan xam xuddi shuni talab qilar, erinchoq, ishga engil-elpi qaraydigan, go'zallikni sevmaydigan, tarixiy obidalarga mensimay ko'z tashlaydigan yigitlarni jini suymasdi.

Men bu kamtarin iisonning yoqimtoy, nuroniy siymosini, ta'mirlashda u amalga oshirgan ishlarni, shogird tarbiyalaydigan g'ayrat-shijoatini butun xayolimda gavdalantirarkanman, Usta Shamsi G'ofurov kelajak uchun, go'zallik va ezgulik taqdiri uchun qanchalik qayg'urganligini yaqqol tushunib turibman. Men shogird sifatida xamisha bu fidokor inson oldida burchliman. Xalq madaniy merosni asrab-avaylashga e'tiborining oshayotganini, Usta Shamsi singari xalq ustalari an'analarni kun sayin rivojlantirishini, shogirdlar tarbiyalashda g'amxo'rlikni kuchaytirishni taqozo etadi".

Shogird, ustoz degan nomni olish qiyindir. Bu sharafli nomlarni olish xammaga xam nasib etmagan. Bu ulug' nomlarni olish uchun kun yillar davomida murakkab sinovlardan o'tganlar. Ular qadimdan xar bir qilgan ishi uchun boshi bilan javob bergan. Chunonchi, usta degan nomni olish oson emasligi quyidagi rivoyatda o'z aksini topgan.

"Bir kishi o'zini "usta" deb atagani uchun Buxoro amiri qattiq g'azablanibdi.

Ko'p hunarmandlar orasida bu sharaf kamdan-kam odamga muyassar bo'lgan ekan. G'azablangan amir bu odamni zindonga tashlashni, hunarini ko'rsatib, o'zini oqlamaguncha ozod qilmaslikni buyuribdi. Uning xech qanday ish quroli yo'q ekan. Xamisha yonida olib yuradigan pichog'i bilan bir kechada

zindon devoriga shu qadar go'zal naqsh chizibdiki, bunday naqshni faqat ertak yoki tushda ko'rish mumkin edi. U usta degan nomini ana shunday oqlabdi".

Shirin amakisi Usta qo'lida o'n sakkiz yil ishlaydi. Shirin shundan so'ng shogirdlikdan usta darajasiga ko'tariladi. Qobiliyatli Shirin Murodovga amakisi Usta Xaot bir necha binolarni bezashni topshiradi. O'sha vaqtda usta nomini olish juda qiyin edi, chunki, shogird usta bo'lishi uchun nazariy xamda amaliy ishlarni puxta bilishi, bir qancha ustalar orasida fotixa olishi kerak edi. Abduqodir Buxorodagi xamma ganchkor ustalarga ganch sotadigan boylardan biri bo'lib. u bir kuni usta xayqirib, yangi uy qurishini va uni ganch o'ymakorligi bilan bezashini aytadi. Usta Xayot bu ishni 22 yoshli Shiringa topshiradi. Bu ish Shirinning birinchi mustaqil ishi edi. Shirin avval uyning planini tuzadi, keyin uning yaxshi chiqishini ko'zlab o'zi yaxshi ko'rgan Buxorodagi me'moriy yodgorliklarini tomosha qilib, ularni sinchkovlik bilan yaxshilab o'rganib chiqadi. Ayniqsa, binoning umumiy ko'rinishi va mexmonxona bezaklarini oddiy, bejirim, nisbatlarini saqlagan xolda bir butun ko'rinishi va boshqalarni xisobga oladi. Shirin mexmonxona va ayvonlarini sharaflar bilan bezaydi. Undagi o'yma ganchlar juda mayin, bejirim chiqqanligi sababli ustalar orasida xurmati va obro'yi yana xam oshadi. Usta Xaot kunlardan bir kun Shirinni oldiga chaqirib men sendan xursandman, endi mustaqil ishlayversang xam bo'ladi, deydi. Azaliy odat bo'lgan, ya'ni 40-50 ustalar, shogirdlar o'rtasida usta nomini berishadi. O'rtaga chaqirib beliga eng yaxshi ganch o'ymakorlik asboblardan shuturgardanni qiyiqchaga qistirib qo'yishadi. Shirin Murodov ana shundan so'ng usta bo'ladi.

Qadimdan ajdodlarimiz usta va shogird an'analari asosida yoshlarga hunar o'rgatish bo'yicha boy tajribaga ega bo'lganlar. Lekin keyingi vaqtlarda ajdodlarimizning boy tajribalaridan to'liq foydalana olmayapmiz. Buning sabablaridan biri usta va shogird an'alarini chuqur ilmiy asosda o'rganmaganligimizdandur.

2.3 Sopol buyumlarga miniatyura ishlash uslublari

Mavzu asosida va illyustrativ rasm chizish jarayonida rangning roli benihoya kattadir. Rangtasvir mazmunini va g'oyasining to'la ochishiga uning emosional ta'sirini kengaytirishga, shuningdek, kompozitsiyadagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Rangning asosiy xususiyatlari uning yorqinligi, tusi va to'yinganligi bilan belgilanadi. Mavzu asosida rasm chizish mashg'ulotlarida bo'yoqlar bilan ishlash murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Faqat ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, ko'rgazmali vositalar va metodik tavsiyalardan samarali hamda o'rinli foydalanish natijasidagina rangshunoslik bo'yicha zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishga erishish mumkin.

Ma'lumki predmetlarning shakli va materiali naturadagi yorug'-soya va rang tuslari orqali idrok etiladi. Har qanday predmet turli xil egriliklar yoki tekisliklar, yuzalar bilan chegaralangan bo'lib, turli xildagi yorug'lik sharoitida bo'ladilar, ya'ni yorug'lik nurlari predmetlarga turlicha tushib ularning yuzalarini turlicha yorug'lantiradilar. Ba'zi yuzalar ko'proq, boshqalari kamroq yorug'lik oladilar. Predmetlar yuzasining yorug'lanish darajasi avvalo, yorug'lik manbaigacha bo'lgan masofaga bog'liq bo'ladi. Yorug'lik manbai yuzadan qanchalik uzoqlikda bo'lsa, predmet shuncha kuchsiz yorug'lanadi va aksincha yorug'lik manbai predmetga qancha yaqinda joylashsa u shunchalik kuchli yorug'lanadi. Shuningdek, predmet yuzasining yorug'lik darajasi predmetdan kuzatuvchigacha bo'lgan masofaga ham bog'liq bo'ladi. Ya'ni narsalar tusi kishi ko'ziga yaqinlashgan sari ochroq, uzoqlashgan sari esa to'qroq ko'rinadi. Yuzalarning yorug'lanish darajasi shu yuzaga tushayotgan yorug'lik nurlarining tushish burchagiga ham bog'liq bo'ladi. Eng kuchli yorug'likni yorug'lik manbaiga tik qaragan yuza oladi. Tushayotgan yorug'lik nurlarining burchagi qanchalik katta bo'lsa narsalar yuzasiga tushayotgan nurlar shuncha bo'ladi.

Har qanday predmetning hajmi, shakli, material iva ularning fazoda joylashuvini biz faqat yorug'-soya jihatdangina emas, rang jihatdan ham idrok etamiz. Hajm va materialni idrok etish predmetlar yuzasida joylashgan yorug'-soya va ranglarga bog'liq bo'ladi. Birinchi va ikkinchi plandagi predmetlarning ranglari bir-biridan o'z to'yinganliklari, yorug'langanliklari bilan keskin farq qiladilar. Shuning uchun ham biz narsalar shaklining tabiiy emas, prespektiv ko'rinishini tasvirlaganimizdek, predmetlar ranglarini ham tabiiy emas perspektivaga ko'rinayotgandek shartli tasvirlashimiz kerak bo'ladi.

Predmet kuzatuvchidan uzoqlashgan sari o'z ranglarining to'yinganligini yo'qotadi, natijada ular havorang yoki zangori tusda ko'rinadilar, soyada esa yorug'lashadilar. Predmetlardagi rang va yorug'lik farqlari kamayadi. Shuningdek, predmet zehlari, uning bo'rtgan joylari bo'laklari o'z aniqliklarini yo'qotadilar.

Ulug' rassom Leonardo da Vinchi perspektivani uch bo'lakka bo'lgan edi:

1. Chiziqli pespektiva.
2. Havo (rang) va rang perspektivasi.
3. Relyef perspektivasi.

Chiziqli perspektivada narsalar kishi ko'zida uzoqlasha va yaqinlasha borgan sari ularni o'lchovlarida havorang perspektivasida ranglarida haov o'zgarishlar yuz beradi.

Relyef perspektivasi deganda esa narsa shakllaridagi aniqlik va ularning fazoda uzoqlashuvi natijasida yorug'lik va soya o'rtasidagi nisbiy o'zgarish tushuniladi. Yorug'lik manbaining o'zgarishiga qarablar o'tlar, daraxt barglari, yer, uylarning ranglari turlicha tusga kiradi. Mazkur predmetlar erta tongda havo rang va zangori tusda bo'lsalar, kunduzi esa ular o'zlaridagi hamma bor ranglarni nomoyon qiladilar. Kechqurun esa zarg'aldoq tusga kiradilar. Bu hodisalarni O'.Tansiqboyevning «Kechqurun GESi tongi», Z.Inog'omovning

«Choyga», V.Kavinaning «Satsiologik Mehnat Qahramoni Tursunoy Ohunova» nomli asarlarida ko'rish mumkin.

Yorug'lik changini qish paytida kuzatish mumkin. Qishning quyoshli yorqin nurida qor pushti rang tusda ko'rinsa soya joyda u havo rang yoki zangori tusda bo'ladi.

Predmetning rangi ularni o'rab olgan narsalarning rangi ta'sirida o'zgaradi. Bunday hodisani refleks deb yuritiladi. Predmetlar rangini biz tefarak-atrofdagi narsalarning ranglariga nisbatan idrok etamiz. Agar predmet turgan joydagi fon o'zgartirilsa o'sha predmetning rangi ham o'zgargandek tuyuladi: sariq yoki qizil fondagiga qaraganda yanada sarg'ish tuyuladi; yashil rangdagi predmet qizil fonda sariq yoki zangori fondagiga qaraganda yorqin va yanada yashil tuyuladi. Iliq rangdagi predmet yonida turgan sovuq rangli predmet yanada sovuqroq tusga ega bo'ladi. Qizil rangdagi predmet yonida kul rang fonda sovuqroq tuyuladi. Zangori rang yashil rang bilan yonma-yon tursa tiniq tuyuladi. Agar predmet rangi sovuq bo'lsa, uning soyasi iliq tuyuladi va aksincha. Manzaradagi bronta daraxtni tasvirlashda uni faqat birgina yashil bo'yoq bilan bo'yash noto'g'ridir. Daraxt rangi yorug'likning ta'sirida yon atrofdagi narsalarning ta'sirida o'zgaradi. Shuning uchun ham uni o'ziga o'xshatish uchun turli ranglardan foydalanish kerak bo'ladi. Shundagina u hajmli va to'laqonli chiqadi. Agar daraxtni faqat yorug'lik darajasi bilan farq qiluvchi lokal rang bilan bo'yasa, noaniq sun'iy jonsiz tasvir hosil bo'ladi. Haqiqiy san'at asarlarini sinchiklab kuzatar ekanmiz, ularda tasvirlangan narsalar va odamlarning ranglari bir-birlari bilan o'zaro bog'liq ekanligini sezamiz. Shuning uchun ham suvrat ishonarli ko'rinadi. Tasvirda yoki suvratda hamma ranglardan ustunlik qiladigan umumiy yorug'lik va rang birikmalariga kolorit deyiladi. Agar suratda qizil rang ustunlik qilsa uni qizil koloritli deb yuritiladi. Umuman suratlar iliq, sovuq yoki oltin, kulrang tus koloritida bo'lishi mumkin.

Kalorit – bu qo'shimcha rang birikmalari qonuniyatlariga javob beruvchi bo'yoqlar uyg'unligi emas u borliqni to'g'ri aks ettirish natijasidir. Suratlarda kalorit turli predmetlar ranglarining uyg'unligi orqali yorug'lanish bilan birlashgan va yorug'lik ranglarining ta'sirida hosil bo'ladi. Osmon predmetlarning soyasiga sovuq tus beradi. Quyosh predmetlarning yorug' qismlarini birlashtiradi. Kechki sun'iy yorug'lik manbalari esa asosan predmetlarga umumiy sarg'ishzarg'aldoqrang beradi. Uning turi ta'sirida zangori va havo rang ranglar ko'rinmay qoladi. Sariq, qizil ranglar yorqin kul rang esa iliq tus oladi. Kechki sun'iy yorug'likni o'zida aks ettiruvchi surat umumiy zarg'aldoq sarg'ish kaloritga ega bo'ladi.

Tevarak - atrofdagi narsalarning aks ta'siri ham naturaning koloritiga ta'sir etadi. Quyosh nuriga chulg'angan fazo o'zining umumiy yorug'ligi va ko'p rangliligi bilan farqlanadi. Biroq manzarada yoki naturada quyosh nurlari ranglarining turli-tuman bo'lishiga qaramay tutuvchi soyalarda va yarim soyalarda osmon, yer, tevarak atrofdagi narsalarning ranglari aks etgan bo'ladi. Shunga muvofiq turli rangdagi manzarada hamma predmetlar uchun umumiy bo'lgan ikki-uch xil ranglar birlashgan bo'ladi. Kompozisiyada ranglarning bir nechitasi yig'ilib chiroyli birikmalarni hosil qilishi ranglar garmoniyasi deb ataladi. Agar ranglar yoqimsiz birikmani hosil qilsa ularni disgarmoniya deb yuritiladi.

Rang guruhlarining garmonik birikmalarini ba'zan gamma deb ham yuritiladi. Ba'zan to'yingan ranglar guruhlarining to'yinmagan ranglar bilan qo'shilishi ham garmonik birikmalarni hosil qilishi mumkin. Biroq ayrim hollarda birgina rasmda to'yingan va to'yinmagan birikmalarning aks etishi disgarmoniyaning hosil bo'lishiga olib keladi. Rasm chizishda ana shu momentlarga rioya qilgan holda ish olib borish tasvirning ta'sirchanligini oshirish imkonini beradi.

Obraz yaratishda «oldingaintiluvchi» va «orqaga intiluvchi» ranglarning xususiyatlarini bilgan holda ish olib borish ham yaxshi natijalar beradi.

«Oldinga intiluvchi» ranglarga ko'proq iliq ranglar kiradi va ular o'zlarining haqiqiy o'rnidan oldinroqda ko'rinadilar. Orqaga intiluvchi ranglar qatoriga sovuq ranglar kiradi va ular o'zlarining haqiqiy o'rinlaridan orqaroqda ko'rinadilar. «Oldinga intiluvchi» ranglar qatoriga yorqin to'yingan ranglar hamda materialning fakturasiga alohida e'tibor berib ishlangan rasm ranglari ham kiradilar.

Kompozitsiyada yorug'lik ham undagi obrazlarning ta'sirchanligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Buni axromatik ranglar bilan ishlangan illyustrativ rasmlarda ko'rish mumkin.

Kompozitsiyada yorug'likning roli shundan iboratki, bunda bo'rttirib ko'rsatilishi lozim bo'lgan obrazlarni tasvirlashda kontrastlik usulidan foydalaniladi, ya'ni asosiy obraz to'q tasvirlansa uning atrofdagilar och ranglar bilan ishlanadi va aksincha suratdagi asosiy obraz och rang bilan ishlansa boshqalari esa to'q ranglar bilan tasvirlanadi.

X U L O S A

O'quvchilar badiy bezash ishlarini bajarish jarayonida o'zlarining badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda juda ko'p ishlab chiqarish - texnik operatsiyalarni ham o'rganadilar. Materiallarning xossalari haqida anchagina qiziqarli narsalarni bilib oladilar, qog'oz, gazlama, yog'och, metal, va hokazolarni ishlatish texnologiyasi hamda turli asboblardan foydalanish qoidalari bilan tanishadilar.

O'quv yurtlaridagi badiiy bezash ishlari haqida fikr yutirilganida ko'rgazmali agetatitsiyani tasirchanligini oshirish va shu orqali o'quvchilarga estetik tarbiya ishining muvaffaqiyatini ta'minlash nazarda tutiladi. Shuningdek badiiy bezash ishlari juda katta ta'limiy va badiy – tarbiyaviy ahamiyatga ham molikdir. Lekin bu ishlar hamma o'quv yurtlarida ham yaxshi yo'lga qo'yilgan, deb bo'lmaydi. Buning birinchi sababi yuqorida aytilganidek, mazkur ishlarning qiyinligi va ularni bajarish uchun kerakli bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislarning yo'qligidir. Shuning uchun o'quvchilarga sinfdan tashqari tasviriy san'at mashg'ulotlarida badiiy bezash ishlarini o'rgatish va ularning o'zlarini ana shu ishlarga jalb etish zarur. Ma'lumki umumiy ta'lim, litsey, kollej va hunar maktabini islox qilishning asosiy yo'nalishlardan biri yosh avlodning mehnat tarbiyasini yaxshilashdan iboratdir.

«Bolaga,- degan edi I.G. Pestalottsi - muayyan darajada sabr – toqatni talab qiladigan ishni o'rgatishda barcha insoniy bilimlardan bolalar uchun eng oson va jozibalilarini tanla. Bolaning taqlid qilishi sening yo'l ko'rsatishing bo'lsin. Xonangda pech bo'lsa, uning rasmini chiz. Agar bolang bir yil davomida to'rt burchakni chiza olmasa-da har holda u qunt bilan ishlashga odatlanadi.»

Eng muhimi o'quvchilarni bezash ishlarini to'g'ri va qiziqarli yo'sinda tashkil etish ularni bajarishga o'quvchilarning o'zlarini doimiy ravishda jalb qilish va ularni qunt bilan ishlashga odatlantirishdir.

Shuningdek, o'quvchilar badiiy bezash ishlarini ixtiyoriy ravishda va g'oyat qiziqish bilan bajarar ekan, ularni o'z holiga tashlab qo'ymaslik o'zlari bajarayotgan ishlarni maqsadi va mohiyatini bilib borishga, ana shu ishlarning natijasini tasavvur etishga o'rgatish lozim. Ana shularga ko'ra pedagogika oliy o'quv yurti badiiy grafika fakulttetida ta'lim olayotgan talabalar rassomlik va chizmachilikka doir bilimlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda badiiy bezash ishlarini tashkil etish va bu ishlarga rahbarlik qilish yo'llarini ham puxta egallashlari lozim. Shundagina ular umumiy ta'lim va hunar maktabi islohotiga muvofiq xalq maorifini qayta qurish sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etayotgan o'quv yurtlardagi badiiy bezash ishlarini axborot, tarbiya, agitatsiyaning, yoshlarni Vatanimiz manfaati yo'lidagi faoliyatiga jalb qilishning samarali vositasi sifatida amalga oshirishda ko'zlangan maqsadga erishishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. 1998 yil
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. T. 1999 yil.
3. Xalq badiiy hunarmandchilik va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, - T: "Toshkent oqshomi" oynomasi, 2-aprel, 1997-yil, 38-son.
4. Azimov I. O'zbekiston naqshu nigorlari. – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1987.
5. Axloq va odobga oid hadis namunalari. – T.: "Fan", 1991.
6. Bulatov S.S. Ganchkorlik, naqqoshlik va yog'och o'ymakorligiga oid adabiyotlarning izohli lug'ati. – T.: "Mehnat", 1991.
7. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati, - T.: "Mehnat", 1991.
8. Bulatov S.S. Ashurova M.O. Amaliy san'atdan qisqacha izohli lug'at. – T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1992.
9. Bulatov S.S. Dadashev L. Naqsh alifbosi. – T.: "Cho'lpon", 1999.
10. Zohidov P.Sh. Zeb ichra ziynat. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1985.
11. Zohidov P.Sh. Farg'ona naqshi. (Xalq ustasi Saidahmad Norqo'ziev albomidan) – T.: O'z adabiy nashr, 1960.
12. Mirzaxmedov M.K. Boshlang'ich badiiy naqsh ishlash metodikasi. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
13. Nabiev M. Rangshunoslik . – T.: O'qituvchi, 1995.
14. Ochiq osmon ostidagi muzey (Tuz. G.A.Pugachenkova) – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1981.
15. Hasanov R. Boshlang'ich sinflarda naqsh chizishga o'rgatish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1972.
16. Qurbonov T. Odobnoma – T.: O'qituvchi, 1991.
17. Qosimov Q. Naqqoshlik – T.: O'qituvchi. 1990.